2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 138 (1199), 2024-yil 11-iyul, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

BUDJET MABLAG‘LARINING MOLIYAVIY NAZORATI KUCHAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev budjet mablag‘laridan foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bugun dunyodagi murakkab jarayonlar iqtisodiyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Mablag‘ topish, jamg‘arish, ko‘paytirish tobora qiyin bo‘lib bormoqda. Bunday sharoitda bor manbalardan samarali foydalanish, tejamkorlik va aniqlik yanada muhim.

Shu yil 16-yanvar kuni iqtisodiyotdagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari budjet xarajatlarining samaradorligi masalasiga alohida to‘xtalib, moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha topshiriqlar bergan edi.

Ma’lumki, bu vazifani O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi amalga oshiradi. Hozirgi tizimda faqat budjet va maqsadli jamg‘armalar xarajati tashqi audit bilan qamrab olingan. Bu jami xarajatlarning 86 foizini tashkil etadi.

Shu bois, Hisob palatasi tomonidan konsolidatsiyalashgan budjet ijrosini tashqi auditdan o‘tkazish taklif etilmoqda. Bu budjetdan tashqari jamg‘armalar hamda tashqi qarz hisobidan xarajatlarni ham qamrab olish imkonini beradi.

Hisob palatasi faoliyatida davlat dasturlaridagi milliy maqsad va vazifalarga erishishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni baholashga qaratilgan strategik audit hamda davlat tashkilotlaridagi dasturiy ta’minotlar samaradorligi bo‘yicha axborot texnologiyalari auditi joriy etilishi mo‘ljallanmoqda.

Yurtimizda 30 mingga yaqin budjet tashkiloti va davlat korxonalari bo‘lib, ularni joyiga chiqib o‘rganishga ko‘p vaqt va mablag‘ ketadi. Shuning uchun Hisob palatasida “Masofaviy nazorat markazi” ishga tushirildi. Endi ilg‘or xorijiy tajriba asosida 36 ta risk-tahlil mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish zarurligi ta’kidlandi.

So‘nggi yillarda hududlar rivojiga katta mablag‘lar yo‘naltirilyapti. Lekin mahalliy kengashlar budjet muhokamasida asosan viloyat yoki tuman budjeti bilan cheklanyapti. Bu — har bir hududga barcha manbalardan berilayotgan mablag‘larning 65-70 foizi ularning nazoratidan chetda qolyapti, degani.

Shu bois, Hisob palatasi budjet jarayonini nafaqat Oliy Majlis palatalarida, balki mahalliy kengashlarda ham muhokama qilib borishi kerakligi qayd etildi.

O‘zA

BYD BILAN HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH REJALARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatidagi “BYD Uzbekistan Factory” zavodida amalga oshirilayotgan ishlar va galdagi vazifalar haqida hisobot bilan tanishdi.

Mazkur korxona shu yil 27-iyun kuni davlatimiz rahbari ishtirokida ishga tushirilgan edi. U BYD yengil avtomobillarini ishlab chiqaruvchi Xitoydan tashqaridagi ilk zavod bo‘ldi.

Bugungi kunda BYD yangi energiya manbalarida harakatlanuvchi avtomobillar — elektromobillar va gibridlarni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha dunyoda yetakchi kompaniya hisoblanadi. U eng yaxshi texnologik baza, innovatsion yechimlar va sifat nazorati tizimlariga ega.

O‘zbekistonga bunday yirik kompaniyaning kirib kelishi, avvalo, mamlakatdagi jozibador investitsion muhit va siyosat, shuningdek, avtomobilsozlik sohasida muhandis kadrlar, ishlab chiqarish bazasi, xomashyo va logistika salohiyati borligi bilan bog‘liq.

“O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi mazkur investitsiya loyihasining dastlabki natijalari va uni kengaytirishga qaratilgan rejalar to‘g‘risida axborot berdi.

Qayd etilganidek, to‘liq ishlab chiqarish jarayonini ishga tushirish doirasida O‘zbekiston korxonalari tomonidan plastik qismlar, oynalar, bamperlar, disklar va boshqa ko‘plab komponentlar ishlab chiqarilishi bo‘yicha BYD sifat tizimiga mos kelishi uchun tahlil o‘tkazildi.

Aholining yengil avtotransport vositalariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va ularning turlarini kengaytirish maqsadida xitoylik hamkorlar bilan B, C va budjet avtomobillari segmentidagi avtomobillar ishlab chiqarish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Ularning birinchi namunalari xitoylik hamkorlar tomonidan zamonaviy standartlashtirish tizimi sinovlarini o‘tkazish uchun laboratoriyalarga topshirildi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiya va standartlarni nafaqat ishlab chiqarish, balki savdo, servis va kafolat yo‘nalishlarida ham tatbiq etish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu sifatsiz mahsulot chiqarilishining oldini oladi hamda avtotransportga yuqori sifatli servis va kafolatli xizmat ko‘rsatilishini ta’minlaydi.

BYD bilan hamkorlik mahalliy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ham o‘z ichiga oladi. Jizzaxdagi “BYD Uzbekistan Factory” kompaniyasiga malakali mutaxassislarni jalb qilish maqsadida Jizzax politexnika instituti va Toshkentdagi Turin politexnika universiteti bilan birgalikda yuqori malakali mutaxassislarni o‘qitish bo‘yicha muhandislik o‘quv markazini tashkil qilish rejalashtirilgan.

Taqdimotda ishlab chiqarish hajmini belgilangan ko‘rsatkichlarga yetkazish hamda mahalliylashtirish jarayonini jadallashtirish chora-tadbirlari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari “BYD Uzbekistan Factory” qo‘shma korxonasi quvvatlarida ishlab chiqarishni tezlashtirish, hamkorlikning keyingi bosqichlari bo‘yicha strategiya tayyorlash va kelgusida ishlab chiqarish quvvatini yillik 500 ming donaga yetkazish hamda eksport bozorlariga yo‘naltirish bo‘yicha aniq vazifalarni qo‘ydi.

O‘zA

IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy himoya sohasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishdi.

“O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” tamoyili asosida mamlakatimizda aholini qo‘llab-quvvatlash, bu sohada sharoitlarni yaxshilash va xizmatlarni kengaytirish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Bunda nogironligi bor shaxslarga qulayliklar yaratish muhim vazifalardan. Shu maqsadda nogironlikni belgilashda raqamlashgan tizimga o‘tish taklif etilmoqda.

Unga ko‘ra, bu dastlab Toshkent shahri va Navoiy viloyatida, 2025-yil 1-sentabrga qadar barcha hududlarda bosqichma-bosqich joriy etiladi. Ekspert komissiyalariga tibbiy hujjatlar oilaviy shifokorlar tomonidan elektron yuboriladi. Baholash Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining moslashtirilgan mezonlari asosida “Inson” markazlari xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Nogironlikni belgilash bilan bir vaqtda uning reabilitatsiya dasturi hamda protezga muhtojligi bo‘yicha ma’lumotlar shakllantiriladi.

Endi ekspert komissiyalari tomonidan kasbga, ta’limga, sportga tavsiya berish, mehnatga layoqatsizlikni belgilash tartibi bekor qilinadi. Bunday shaxslar ish, sport va ta’limga individual yondashuv asosida yo‘naltiriladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning xavfsiz va to‘siqlarsiz harakatlanishi uchun sharoitlarni kengaytirish ham ko‘zda tutilmoqda. Shu bois, quriladigan va ta’mirlanadigan binolar bunga moslashganligi bo‘yicha majburiy ekspertizadan o‘tkaziladi. “Xavfsiz yo‘l va xavfsiz piyoda” jamg‘armasining kamida 10 foiz mablag‘i har yili chorrahalarni nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun moslashtirish bo‘yicha qurilish va jihozlashga yo‘naltiriladi. To‘siqlarsiz muhit yaratilgan obyektlarning elektron interaktiv xaritasi yaratiladi.

Jamoat transporti bo‘yicha tenderlarda faqatgina nogironligi bo‘lgan shaxslarga moslashtirilgan avtobuslar ishtirok etishi mumkin bo‘ladi. Shahar jamoat transportida I guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga bepul xizmat ko‘rsatiladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni madaniy tadbirlar, ko‘ngilochar tomosha va marosimlarga jalb qilish bo‘yicha amaliy choralar ko‘riladi.

Taqdimotdagi yana bir taklif Jahon banki ishtirokidagi “Inson” loyihasi haqida bo‘ldi. Bu loyiha aholining zaif qatlamlarini jamiyatga integratsiya qilishga qaratilgan bo‘lib, uning doirasida 55 ta ko‘pfunksiyali hududiy xizmatlar markazi tashkil etiladi va 20 turdagi ijtimoiy xizmat yo‘lga qo‘yiladi. Toshkent, Farg‘ona va Samarqandda 4 ta namunali inklyuziv kasb-hunar ta’limi markazlari tashkil etiladi.

Besh ming nafar xodimning ijtimoiy ish bo‘yicha malakasi oshiriladi. Moslashuvchan ijtimoiy xizmat va yordam bo‘yicha normativ-huquqiy baza shakllantiriladi.

Sohadagi yana bir yangilik “ijtimoiy karta” tizimining joriy etilishi bo‘ladi. Bu orqali ijtimoiy to‘lovlar va subsidiyalar, ijtimoiy xizmatlar va yordamlarni tayinlash, taqdim etish, monitoring qilish va baholash jarayonlari to‘liq avtomatlashtiriladi. “Ijtimoiy karta” bir vaqtning o‘zida ham to‘lov vositasi, ham ehtiyojmand toifaga mansublik tasdig‘i hisoblanadi.

Bu tartib dastlab Toshkent shahri va Yangiyo‘l tumanida, keyingi yildan boshqa hududlarda joriy etiladi. Natijada 72 turdagi ijtimoiy xizmatlar, 76 turdagi yordamlar va 200 ga yaqin imtiyozlar yagona elektron tizimga umumlashtiriladi. Qog‘oz shakldagi hujjatlar bekor qilinib, vaqt va mablag‘ tejaladi. Soha to‘liq raqamlashtirilishi orqali har bir oilaning ehtiyojlari va imkoniyatlarini aks ettiradigan “ijtimoiy-raqamli pasporti” joriy etiladi.

Davlatimiz rahbari bu borada tegishli hujjatlarni ishlab chiqib, samarali joriy etish, ehtiyojmand insonlarning hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘zA

PREZIDENTGA MAKTUB

SAMIMIY MINNATDORLIK

Yaqinda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida atoqli olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi Botirxon Valixo‘jayevning “Tanlangan asarlar” kitobi taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Rahmatli Botirxon domla uzoq yillar mazkur ta’lim dargohida talabalarga mumtoz va zamonaviy o‘zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik fanidan saboq bergan, nafaqat Samarqand, balki butun mamlakatimizda o‘zining ko‘plab salmoqli ilmiy tadqiqotlari bilan keng tanilgan mo‘tabar va zakiy inson edi.

Allomaning uch jilddan iborat “Tanlangan asarlar”ining birinchi va ikkinchi kitoblaridan “Mumtoz siymolar” turkumida yaratilgan Mavlono Lutfiy, Xoja Ahror valiy, Nizomiddin Alisher Navoiy, Husayniy — Sulton Husayn, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug‘ shoir va mutafakkirlar haqidagi hamda Samarqand madrasalari tarixiga oid risolalar, uchinchi jilddan esa “O‘zbek epik poeziyasi tarixidan” va “O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi” nomli fundamental tadqiqotlari o‘rin olgan.

Muallifning oltmish yillik ilmiy-ijodiy faoliyati mahsuli bo‘lgan ushbu saylanma

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi ijodiy xodimlari, taniqli mutaxassis olimlar tomonidan tayyorlanib, yuqori poligrafik sifat bilan nashr etildi.

Samarqand davlat universitetida olimning ko‘plab safdoshlari, ijodkor ziyolilar, professor-o‘qituvchilar, talabalar ishtirokida bo‘lib o‘tgan taqdimot marosimida Botirxon Valixo‘jayevning turmush o‘rtog‘i Xadicha aya Vafoyeva ham so‘zga chiqib, Yozuvchilar uyushmasi va universitet rahbariyatiga, domlaning hamkasblari va shogirdlariga tashakkur izhor etdi. Mana shunday xayrli ishlar boshida shaxsan davlatimiz rahbarining o‘zi turgani, ilm va ijod ahliga yuksak g‘amxo‘rlik va e’tibor ko‘rsatayotganini alohida ta’kidladi.

Quyida butun hayotini ilm-fan va ta’lim rivojiga, yosh avlod tarbiyasiga bag‘ishlagan yetuk olimning umr yo‘ldoshi Xadicha aya Vafoyevaning shu munosabat bilan Prezidentimiz nomiga yo‘llagan maktubini e’tiboringizga havola etamiz.

Assalomu alaykum,
muhtaram Shavkat MIROMONOVICH!

Men — Siz har doim hurmat qilib, e’zozlab kelgan Botirxon domlangiz (akademik Botirxon Valixo‘jayev)ning ayoli Xadicha opangiz bo‘laman. Yaqinda oilamiz hayotida ro‘y bergan g‘oyat quvonchli bir voqea Sizga ushbu maktubni yo‘llashimga da’vat etdi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan domlaning uch jilddan iborat “Tanlangan asarlar”i nashr etildi. Ko‘p o‘tmay, Samarqand davlat universitetida mazkur kitoblar taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Ushbu xayrli ishlarga katta hissa qo‘shgan domlaning shogirdlari, Yozuvchilar uyushmasi, noshirlar va universitetimiz rahbariyatidan g‘oyat minnatdor ekanimni bildirgan holda, aytmoqchimanki, mana shunday xayrli ishlar boshida, albatta, Siz turibsiz. Sizning ilm va ijod ahliga ko‘rsatayotgan cheksiz g‘amxo‘rligingiz va e’tiboringiz yurtimizda mana shunday savobli tadbirlarning amalga oshishiga zamin yaratmoqda.

Sizning viloyatimiz rahbari vazifasida yuritgan samarali faoliyatingizni, ayniqsa, ilm va ijod ahliga har doim xayrixoh va jonkuyar bo‘lganingizni, jumladan, vaqtingiz har qancha tig‘iz bo‘lmasin, Botirxon domlangizdan dam-badam xabar olib turganingizni haligacha minnatdorlik bilan eslayman. Ko‘p yillar ta’lim-tarbiya sohasida ishlagan bir inson sifatida Sizning bu ishlaringiz ahamiyatini juda yaxshi tushunaman va farzandlarim, nevara-chevaralarimga bu haqda faxrlanib so‘zlab o‘tiraman.

Qadrli Shavkat Miromonovich!

Siz bugun O‘zbekiston rahbarisiz, butun yurt mas’uliyati zimmangizda. Mehribon Egam Sizga ana shunday buyuk sharaf va mas’uliyatni munosib ko‘rgan ekan, har doim O‘zi qo‘llasin. El-yurt ishonchi, ko‘pning duosi Sizga mudom madadkor bo‘lsin.

Savobli va sharafli xizmatlaringiz yo‘lida Yaratgandan Sizga tuganmas kuch-quvvat, mustahkam sog‘liq va omad tilayman. Vatanimiz, xalqimiz baxtiga hamisha omon bo‘ling!

Xadicha VAFOYEVA,
mehnat faxriysi

Samarqand shahri, 2024-yil 9-iyul

Taraqqiyot odimlari

MAHALLIY KENGASHLARNING DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDAGI ROLI KUCHAYMOQDA

Guvohmizki, mamlakatimizda keyingi yillarda inson qadri ulug‘langan yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan kechayotgan yangilanish jarayonlarini bitta so‘z bilan ifodalash joiz bo‘lsa, mazmun-mohiyatida “xalqni rozi qilish, og‘irini yengil qilish” ezgu g‘oyasi mujassam.

Hayotbaxsh islohotlar jarayonida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarni hal qilish bo‘yicha vakolatlari kengaytirilib, xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, mahalliy kengashlarni xalqning haqiqiy “ovoziga” aylantirish borasida ham keng qamrovli o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Jumladan, mahalliy Kengashlarning nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati ustidan xalq deputatlari Kengashlarining nazorat funksiyalarini kengaytirish maqsadida ularga qo‘shimcha vakolatlar berildi. Xususan, prokuratura, adliya, ichki ishlar, moliya, soliq, ekologiya va sog‘liqni saqlash organlari rahbarlarining hisobdorligi belgilab qo‘yildi.

Davomi 3-betda

Bugunning gapi

200 KILOVATT ELEKTR ENERGIYASI

“Ijtimoiy norma” ijtimoiy adolatni ta’minlaydimi?

Shu kunlarda mamlakatimizda elektr energiyasi iste’moli bo‘yicha o‘rnatilgan ijtimoiy norma — oylik belgilangan 200 kilovattlik limit masalasi jiddiy muhokama qilinyapti. Internet tarmoqlaridan tortib, o‘zaro suhbatlarda ham shu mavzuda gapirilyapti. Hatto yurtdoshlarimiz energiya iste’moli uchun qo‘yilgan bazaviy normani bekor qilishni so‘rab, ijtimoiy tarmoqlarda fleshmob o‘tkazmoqda. Odamlar tegishli mutasaddilarga murojaat qilib, 200 kilovattlik limitni bekor qilishni so‘rayapti.

Fleshmobda qatnashganlar soni kun davomida yuz mingdan oshgani kuzatildi. Ijtimoiy tarmoqlarda ketayotgan bahs-munozaralarda odamlar ikki guruhga bo‘lingan. Kimdir ijtimoiy norma aholini tejamkorlikka undayotgani haqida gapirsa, boshqalar elektr energiyasiga ehtiyoj 200 kilovattdan yuqori ekani, ayniqsa, ko‘p oilali xonadonlar uchun juda kamligi, kuz-qish mavsumida bu ehtiyoj yanada oshishini aytib, e’tiroz bildiryapti.

Davomi 4-betda

ISHONCH INQIROZI

yoxud ajralishlar nega ko‘paymoqda?

Dolzarb mavzu

Ishonch — tinchlik-xotirjamlik, hamjihatlikni ta’minlovchi muhim rishta o‘laroq xalqimizning turmush tarziga chuqur singib, milliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Zotan bu tuyg‘u muayyan jamoa, jamiyat yoki davlat, umuman, insoniyatni ezgu maqsad atrofida birlashtirish, shu orqali rivojlanish, yuksak taraqqiyotga erishishning asosiy omili bo‘lib kelgan.

Davomi 5-betda

2024-yil 11-iyul, 138-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Har qanday ijtimoiy-huquqiy davlatda aholini munosib uy-joy bilan ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Uy-joy, bu — inson hayotining uzviy va ajralmas qismi, jamiyatda erkin hayot kechirishning garovi.

SHAHARLAR ENDI “BO‘YIGA O‘SADI”

Qurilish ko‘lami kengayayotgani har kimning uy-joyli bo‘lish huquqini ta’minlamoqda

Qahhor JUMAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti yetakchi ilmiy xodimi

Keyingi yillarda yurtimizda ushbu sohani qo‘llab-quvvatlash va aholini munosib uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, mamlakatimizda to‘rt yil oldin ipoteka tizimining bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy etildi. Unga muvofiq, o‘tgan davr mobaynida aholini uy-joy bilan ta’minlash maqsadida 100 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Natijada hududlarda 6 mingta ko‘p qavatli uy barpo etilib, 250 ming oila yangi xonadonli bo‘ldi. Daromadi yuqori bo‘lmagan 45 mingta oilaga boshlang‘ich badal va foiz to‘lovi uchun 2,4 trillion so‘mlik subsidiyalar berildi.

Birgina 2023-yilda 85 mingta xonadon qurilib, ularni sotib olish uchun aholiga 17 trillion so‘mlik ipoteka krediti ajratildi. Aholi sonining o‘sishini inobatga olib, 2024-yilda 100 mingta xonadondan iborat uy-joy qurish va ipotekani moliyalashtirish maqsadida 22,5 trillion so‘m yo‘naltirish rejalashtirilgan.

Qayd etish joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ayni yo‘nalish bo‘yicha mustahkamlab qo‘yilgan normalar bu boradagi islohotlarni yanada jadallashtirdi. Xususan, yangilangan Bosh qonunimizning 47-moddasi uy-joy masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda har kimning uy-joyli bo‘lish huquqiga ega ekanligi, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi borasidagi huquqiy normalar belgilandi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning mazkur moddasida **uy-joy qurilishi davlat tomonidan rag‘batlantirilishi hamda aholining ehtiyojmand toifalari uy-joy bilan ta’minlanishi** qonun bilan belgilanishi kabi muhim qoidalar nazarda tutildi.

O‘z navbatida, ushbu konstitutsiyaviy normalar davlatning mazkur sohadagi ijtimoiy vazifa va funksiyalarini yanada kuchaytirib, uy-joy qurilishi sohasidagi islohotlarning ahamiyati va mohiyatini yanada oshirdi, boshqa tomondan, fuqarolarning davlatga nisbatan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, ehtiyojmand va kam ta’minlangan oilalarni uy-joy bilan ta’minlash davlatning doimiy nazoratida, bu borada ushbu toifadagi oilalarga doimiy ravishda yangi imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 12-mart kuni uy-joylar qurilishi sohasidagi masalalarga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda “mahalla yettiligi” tavsiyasi asosida kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kirgan va turar joyi nochor ahvoldagi oilalarga o‘z hovlisida uy qurish va ta’mirlash maqsadida 120 million so‘mgacha ipoteka krediti ajratish yo‘lga qo‘yilishi, bunda kreditning 15 foizi va dastlabki besh yilda foiz stavkasining 6 foizgacha qismi davlat byudjetidan qoplab berilishi vazifasi belgilandi.

Albatta, ushbu islohotlar yuqoridagi konstitutsiyaviy normaning amaldagi ifodasini namoyon etish bilan birga, kam ta’minlangan oilalarning davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanayotganidan dalolat beradi.

O‘z navbatida, ushbu yaratilayotgan sharoitlar ehtiyojmand aholi qatlamiga o‘zlarining shaxsiy uylariga ega bo‘lishda ham moliyaviy, ham ma’naviy jihatdan yaxshigina ko‘mak bo‘lmoqda.

Keyingi yillarda ushbu sohani tartibga solishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari ham takomillashtirildi. Jumladan, Prezidentimizning 2018-yil 14-noyabrda “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 27-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari qabul qilinib, ularda qurilish sohasini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan asosiy chora-tadbir va vazifalar belgilab berildi.

2021-yilda Shaharsozlik kodeksi yangi tahrirda qabul qilinib, zamonaviy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirgan yangi normalar va qoidalar bilan to‘ldirildi. Shuningdek, 2022-yil 20-aprelda Vazirlar Mahkamasining “Qurilish sohasiga oid yagona ma’muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, unga muvofiq, qurilish sohasida bir qator ma’muriy reglamentlar tasdiqlandi hamda ushbu sohada davlat xizmatlari ko‘rsatishning yangi tartibi va tizimi joriy etildi.

Bundan tashqari, uy-joy qurilishi sohasida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash borasida ham zaruriy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2020-yilda “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi ishga tushirilib, ushbu tizim orqali obyektlarda qurilish jarayonlarini nazorat qilish va monitoring olib borish, obyektlar qurilishida ishtirok etayotgan barcha asosiy va yordamchi pudratchilar haqida ma’lumotlar bilan tanishish, obyektlar qurilishini moliyalashtirishda pudratchi — buyurtmachi o‘rtasida shartnoma imzolangani va avans mablag‘lari amalga oshirilganini tekshirish hamda qurilishi rejalashtirilgan obyektlarning manzilli dasturini shakllantirish va ularni nazorat qilib borish imkoniyati yaratildi.

Ta’kidlash lozimki, qurilish sohasida joriy etilgan ushbu axborot tizimi qurilish obyektlarini nazorat qilishda yangi imkoniyatlarni vujudga keltirish bilan birga, qurilish tashkilotlarini mavjud qurilish normalariga rioya qilish bo‘yicha hushyorlikka chaqirmoqda hamda oddiy fuqarolarga pudratchi tashkilotlarning faoliyati haqida zarur axborotlar bilan tanishish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, 2020-yilda “O‘zbekiston Respublikasi davlat shaharsozlik kadastri” geografik axborot tizimi joriy etilib, uning asosiy vazifasi sifatida quyidagilar belgilandi:

— davlat organlari va tashkilotlari hamda jismoniy shaxslarni shaharsozlik kadastri obyektlari to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minlash;

— shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda idoralararo elektron hamkorlikni ta’minlash;

— shaharsozlik faoliyati to‘g‘risidagi fazoviy ma’lumotlarni markazlashtirilgan tarzda saqlash va boshqarish.

Uy-joy qurilishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq ustuvor vazifalar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham o‘z aksini topdi. Jumladan, strategiyaning 60-maqsadi bevosita aholini uy-joy bilan ta’minlash masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda quyidagilar nazarda tutilgan:

— 2030-yilga qadar O‘zbekiston hududlarida 1 million xonadonli uy-joylar qurish;

— “Yangi O‘zbekiston” massivlari sonini 100 taga yetkazib, qo‘shimcha 200 mingta oilaga mo‘ljallangan uylarni barpo etish;

— respublikada kamida 140 ming oilaga mo‘ljallangan ijtimoiy uylarni barpo etish.

Shuningdek, strategiya doirasida ko‘p kvartirali uylar va boshqa ko‘chmas mulk obyektlarini ulush kiritish asosida qurishni tartibga soluvchi qonuniy asoslarni shakllantirish, rivojlangan davlatlarning tajribasi asosida bino-inshootlarning qurilish xavfsizligi me’yorlari bo‘yicha yangi standartlarni joriy qilish, aholi zich bo‘lgan hududlarda “bo‘yiga o‘stirish” tamoyili asosida ko‘p qavatli uy-joylar barpo etish hamda qurilishda o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlash tizimini qayta ko‘rib chiqib, yiliga 20 ming nafar professional usta-mutaxassis tayyorlash vazifalari nazarda tutilgan.

O‘z navbatida, ushbu vazifalarning amaliyotga samarali tatbiq etilishi mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar natijadorligini yanada oshirish hamda qurilish sohasi rivojini yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, qurilish sohasidagi ulkan bunyodkorlik ishlari, sezilarli o‘sishga qaramasdan, ushbu sohada ayrim muammolar saqlanib qolayotganini ko‘rish mumkin. Xususan, ba’zi hududlarda bosh rejaning yo‘qligi, ayrim hollarda qurilish normalariga rioya etilmayotgani va buning natijasida ekologik muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatilayotgani, qurilishda zamonaviy va innovatsion texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmayotgani, uy-joylar narxining nisbatan qimmatligi, ba’zi hollarda aholining qurilish tashkilotlariga aldanib qolayotgani hamda ushbu sohadagi kadrlar salohiyati yetarli darajada emasligi shular jumlasidan.

Qurilish sohasida mavjud ushbu muammolar mazkur yo‘nalishdagi islohotlarni bundan keyin ham davom ettirishni hamda tegishli chora-tadbirlar ko‘rishni talab etadi. Xususan, mas’ul idoralarning qurilish tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni yanada kuchaytirish, pudratchi tashkilotlar shartnomaviy majburiyatlarini o‘z muddatida va sifatli bajarilishini ta’minlash bo‘yicha shaxsiy mas’uliyatini oshirish hamda fuqarolarning uy-joyga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishda ularning ijtimoiy faolligiga, shuningdek, qurilish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, uy-joy qurilishi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu soha rivojlanishida o‘zining ijobiy samarasiga ega bo‘lib, aholining kundalik hayoti uchun muhim vosita bo‘lgan uy-joy bilan ta’minlanishida muayyan imkoniyatlarni yaratishga xizmat qilmoqda.

Qaror va ijro

QASHQADARYODA SAYYOHLIK: IMTIYOZ INVESTITSIYALAR OQIMI ORTISHINI KAFOLATLAYDI

Bir vaqtning o‘zida to‘rt faslni kuzatish imkoniyati mavjud bo‘lgan maftunkor Qashqadaryoni ko‘rish istagida bo‘lgan sayyohlar oqimi ko‘payib bormoqda. Mubolag‘a emas, ma’lum bir vaqtda qaysidir hududda qish, yana birida bahor, birida yoz, bir tomonida kuz faslining guvohi bo‘lgan kishi tabiatning mo‘jizakorligiga tasanno aytmay iloji yo‘q. Albatta, bu jarayonga guvoh bo‘lish uchun bir bora voha tomon yo‘lga otlanish, ona zamin siru sinoatlaridan voqif bo‘lmoq kerak.

Sir emas, avvallari viloyat turizmi haqida gap ketganda, bu borada anchagina muammolar mavjud bo‘lib, sanoqli manzilni aytmaganda, biror narsa deyish yoki jo‘yali joyni ko‘rsatish mushkul edi. Quvonarlisi, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ushbu yo‘nalishda katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, buni o‘tgan ikki-uch yilda viloyatga sayyoh sifatida tashrif buyuruvchilar soni ortganidan ham anglash mumkin.

Prezidentimizning 2023-yil 28-noyabrdagi “Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi vohada turizm yo‘nalishini yangi bosqich sari yetakladi. Xususan, mazkur qaror bilan belgilab berilgan 240 gektarlik “Shahrisabz” turistik markazi hududida turizm va yondosh yo‘nalishlardagi infratuzilma obyektlari qurish bo‘yicha master-reja ishlab chiqildi.

Ayni kunlarda umumiy 1050 o‘ringa mo‘ljallangan 2 ta 4 yulduzli mehmonxona, xostel hamda savdo-ko‘ngilochar markazini qurish ishlari jadal bormoqda. Shu bilan birga, umumiy uzunligi 1800 metrli dor yo‘li, avtoturargoh va restoran barpo etilmoqda. Madaniy hordiq chiqarish bog‘lari yaratilyapti. Zamonaviy tipdagi xizmat turlari joriy qilinayotir.

Tumandagi “Miraki”, “Amir Temur” va “Uloch” MFYlarida 31 ta lotni o‘zaro bog‘lovchi, piyodalar va velosipedchilar uchun 10 kilometrlik salomatlik yo‘lagi qurilish ishlari boshlab yuborildi. Birgina shu yo‘lakning o‘zi 200 dan ziyod xizmat ko‘rsatish nuqtalari va 400 ga yaqin ish o‘rni ochilishiga asos bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, joriy yil boshidan “Hisorak” suv ombori hududida 2 ta 20 o‘rinli katerda sayohat xizmati tashkil etilib, yangi turizm marshruti ochildi. Bunda viloyatning boshqa hududida takrorlanmaydigan suv ustida sayohat qilish sharoiti mavjud. Loyihaning keyingi bandiga ko‘ra, gidrotsikllarda sayohat qilish va rafting sport turi bilan shug‘ullanish imkoniyatini ham yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda.

O‘tgan yilning 4-6-oktabr kunlari Rossiyaning Qozon shahrida o‘tkazilgan “Kazan EKSPO” tadbirlari doirasida viloyat hokimi boshchiligidagi delegatsiya Shahrisabz tumanida umummavsumiy dam olish maskanini tashkil etish loyihasi bo‘yicha muhim kelishuvlarga erishdi.

Natijada xorijiy hamkorlar bilan birga hududning master-rejasi ishlab chiqildi. Bu jarayonda Avstriyaning “Dopel Mayer” kompaniyasi hamda Ispaniya, Polsha, Slovakiya va rossiyalik mutaxassislar bir necha marotaba joyiga chiqqan holda hududning imkoniyatlarini o‘rgandi. Iqlimi, ob-havo sharoitlari, qulayliklari haqida ma’lumotlar oldi.

Master-rejaga asosan, umumiy 2,9 ming gektar tog‘li hududda 200 kilometrlik tog‘ chang‘i trassalari, 13,9 kilometrlik har xil turdagi dor yo‘llari, 160 ming 400 metr kvadrat maydonda bino-inshootlar qurish orqali bir vaqtning o‘zida 13 ming 884 kishini sig‘dira oladigan yotoq joylar yaratiladi. Shu kompleksning o‘zi bir yilda 1 million turist qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bu joyda ko‘plab ish o‘rni ham yaratiladi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 8-iyuldagi “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori esa turizm yo‘nalishida mehnat qilayotgan tadbirkorlar uchun yana bir qulaylik sari keng yo‘l ochdi.

— Ushbu qarorga asosan, hududlarni iqtisodiy rivojlantirish va urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, jumladan, tumanlar va shaharlarning drayver yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun master-rejalarni ishlab chiqish amaliyotini, bo‘sh yer uchastkalarida yuqori daromad keltiradigan faoliyat turlarini, shuningdek, infratuzilma loyihalarining master-rejalariga muvofiq amalga oshirishni tashkil qilish maqsad qilingan, — deydi Qashqadaryo viloyat turizm boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Shahzoda Xidirova. — Shuningdek, turizm sohasining imkoniyatlarini kengaytirish yuzasidan ham vazifalar belgilab berildi. Ya’ni aholi va sayyohlar uchun barcha qulayliklarga ega turizm maskanlarini tashkil etishga qaratilgan master-rejalar ishlab chiqiladigan tuman va shaharlar ro‘yxati aniq ko‘rsatib o‘tildi.

Endilikda mazkur hujjatga asosan, boshqa manzillarda bo‘lgani kabi Qamashi tumanida tijorat banklari ko‘magida ishlab chiqilgan master-rejaga ko‘ra, 41 gektar maydonda turizm obyektlariga ixtisoslashgan yer-uchastkalari auksion savdolariga chiqariladi.

Eng muhimi esa, qarorda viloyatimiz turizm salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladigan qo‘shimcha imtiyozlar kiritib o‘tilgani bo‘ldi. Mazkur qarorning 14-bandida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabrdagi “Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreasion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 6-bandi quyidagi mazmundagi to‘rtinchi-oltinchi xatboshilar bilan to‘ldirilishi belgilandi. Bunda, 2024-yil 1-yanvardan 2025-yil 31-dekabrga qadar elektron auksion savdolarida realizatsiya qilingan yer uchastkalari bo‘yicha dastlabki to‘lov summasi 15 foizdan ko‘p bo‘lgan hollarda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi bo‘yicha foizlar hisoblash tartibi amal qilmasligi belgilab qo‘yildi. Hamda auksion g‘olibi tomonidan dastlabki to‘lov summasining kamida 15 foizi to‘langanda, unga yer uchastkasiga bo‘lgan ijara va mulk huquqini kredit ta’minoti sifatida garovga qo‘yish huquqi berildi. Bu yangilik bugun vohamizda shu tizimda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar uchun juda ma’qul bo‘ldi. Qo‘shimcha imtiyoz, albatta, tarmoqni yanada kengaytirishga asos bo‘ladi.

Viloyat turizm boshqarmasi mutasaddilarining ma’lumotlariga ko‘ra, ayni paytda viloyatning ko‘pgina qismida turizm obyektlari, xizmat ko‘rsatish majmualari tadbirkorlar tomonidan bunyod etilmoqda. Shu bilan birga, yana qo‘shimcha yer olib, ish boshlash harakatida bo‘lgan ishbilarmonlar safi ko‘p. Ayniqsa, Kitob, Shahrisabz, Qamashi tumanlarida bu borada talab ancha yuqori.

— Ancha yildan buyon turizm sohasida xizmat ko‘rsatib kelamiz, — deydi Qarshi shahridagi “Grand star travel” xususiy korxonasi bosh mutaxassisi Jamshid Mahmudov. — Shuni tan olishimiz kerakki, keyingi yillarda bu tizimga e’tibor ancha ortdi. Bilamizki, turizm mamlakat iqtisodiyotini ko‘tarishda eng yaxshi samara beruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Shu sabab bizda ham Prezidentimizning tashabbusi bilan bir qator yangiliklarga qo‘l urilmoqda. Tizimda faoliyat olib borayotgan ishbilarmon doira vakillariga imtiyozlar berilmoqda. Kuni kecha qabul qilingan Prezidentimizning qarori ham shular jumlasidan.

Korxonamiz turli hududlarda sayyohlar uchun xizmat ko‘rsatib keladi. Yangi loyihaviy rejamizga ko‘ra, tog‘li hududdan auksion orqali yer olib maishiy shoxobchalar qurish istagida edik. Ammo mablag‘ borasida bir oz muammolar o‘ylantirib turgandi. Berilgan imtiyozlar esa biz uchun ayni muddao bo‘ldi.

Sirasini aytganda, yo‘nalishga kiritilayotgan har bir imtiyoz va qulayliklar ishbilarmon doira vakillarining tizimdagi faoliyatini yanada kengaytiradi. Turizm xizmatlari sifati yaxshilanadi. Oqibatda sayyohlar tashrifi tobora ortib, ularning mehmon bo‘lishi ikki-uch kunga uzayadi. Bu esa iqtisodiy barqarorlik oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, aholi bandligini ta’minlash uchun ham muhim hisoblanadi. Mutaxassislar ta’kidlashicha, voha drayveriga aylanayotgan soha rivojlanishi natijasida joriy yil xorijiy turistlarning viloyatga kelishi avvalgi yilning mos davriga qaraganda ancha oshgan. Demak, sarflanayotgan sarmoya, qilinayotgan mehnat va e’tibor o‘z samarasini bermoqda. Maqsad sari tashlanayotgan qadam manzil tomon odimlamoqda.

A.RAHMONOV,
jurnalist

Ta’limda hamkorlik

Tashrif dasturiga muvofiq, Farg‘ona viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi vakillari Suginami tumanidagi “Naritanishi” bog‘chasi tajribasini o‘rgandi.

FARG‘ONA VILOYATI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI TIZIMI XODIMLARI YAPONIYA TAJRIBASINI O‘RGANDI

Farg‘ona viloyatidagi maktabgacha va maktab ta’limi tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlardan iborat delegatsiya joriy yilning 28-iyun – 5-iyul kunlari Yaponiyada bo‘ldi.

Safar davomida delegatsiya a’zolari Tokioning Suginami tumanidagi “Koyendzi gakuen” boshlang‘ich va o‘rta ta’lim maktablarida uch kun malaka oshirdi. O‘quvlar davomida aniq va tabiiy fanlar, matematika, jismoniy tarbiya, mehnat va san’at darslarida bevosita ishtirok etdi. Shuningdek, yapon pedagoglari tomonidan darslarni o‘tish jarayoni, bolalar bilan munosabatlarini o‘rgandi.

Mamlakatimizning Yaponiyadagi elchixonasida Farg‘ona viloyati vakillari uchun qator seminarlar tashkil qilindi. Xususan, Tokio xalqaro yapon tili markazida faoliyat yurituvchi, Yaponiyada uzoq yillardan buyon istiqomat qilayotgan vatandoshimiz, filologiya fanlari doktori Feruza Normatova hamda Tokio prefekturasi ta’lim boshqarmasi xodimi, ko‘p yillar yapon maktablarida direktor lavozimida ishlagan, pedagogika fanlari doktori Xideo Idjima ishtirokida “Yaponiya ta’lim tizimi” mavzusida seminar o‘tkazildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston tomoni Xachiodzi shahrida joylashgan Soka universitetida bo‘lib, 2004-yili universitet hududida o‘rnatilgan buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo‘ydi.

Shundan so‘ng universitet prezidenti Masashi Suzuki bilan alohida uchrashuv tashkil etildi. Unda Farg‘ona viloyatidagi yapon tili o‘qituvchilariga metodik ko‘mak berish va tajribasini oshirish bo‘yicha hamkorlik qilishga kelishib olindi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Farg‘ona viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi vakillari Suginami tumanidagi “Naritanishi” bog‘chasi tajribasini o‘rgandi.

2023-yildan buyon Farg‘ona viloyatidagi har bir shahar va tumandan tanlab olingan bitta maktabda sinov tariqasida Yaponiya ta’lim tajribasi amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ushbu dasturga ikki nafar yapon eksperti jalb qilingan.

Yangi o‘quv yilidan boshlab viloyatning 19 hududidagi yana 3 tadan maktab tanlab olinib, ularda yapon ta’lim tizimi joriy qilinishi rejalashtirilmoqda.

“Dunyo” AA
Tokio

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Yangilangan Konstitutsiya qoidalarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatidagi murakkabliklarni bartaraf etish, qonunchilikning tizimliligini ta’minlash maqsadida 2024-yil 2-fevralda Prezidentimizning “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

DAVR NAFASI

3

2024-yil 11-iyul, 138-son

TARAQQIYOT ODIMLARI

MAHALLIY KENGASHLARNING DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDAGI ROLI KUCHAYMOQDA

Sakina SAIDG‘OZIYEVA,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Boshlanishi 1-betda

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari, **mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilganligi** hokimiyatlar bo‘linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilning mahalliy darajada ijrosini ta’minlashda muhim qadam bo‘ldi.

Vakolat va mas’uliyat oshirildi

Agar avval mahalliy Kengashlarning vakolatlari miqdori 20 taga ham yetmagan bo‘lsa, hozirda ular qariyb olti barobarga oshib, 120 dan ortganini ko‘rishimiz mumkin.

Oldinlari mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet bo‘yicha vakolatlari cheklangan edi. Hududda orttirilgan mablag‘ning o‘zi bo‘lmasdi. Keyingi yetti yil ichida hududlarning mahalliy byudjetga oid vakolatlari tubdan oshirildi. Belgilangan mahalliy byudjetlar daromadlari prognozini oshirib bajarish summasi mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldiriladigan tartib yaratildi.

Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari mahalliy byudjetlardan tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini ko‘rib chiqish hamda tasdiqlash, tegishli byudjetlardan moliyalashtiriladigan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitish vakolatlariga ega bo‘ldi.

Bundan yetti yil oldin deputatlar faqat hokimninggina yillik hisobotini eshitgan bo‘lsa, hozir mahalliy darajadagi 60 dan ortiq organlarning 120 ga yaqin masalalardagi hisobot va axborotlari deputatlar tomonidan tinglanmoqda.

Avvallari u yoki bu masala bo‘yicha idoralarning hisobot (axborot)larini faqat bir yilda bir eshitish belgilanardi. Hozir esa har oy, har chorak, har yarim yilda eshitish kabi davriy hisobot eshitishga oid vakolatlar karrasiga oshdi.

2017-yilgacha prokuror yoki ichki ishlar organlari rahbarlarining mahalliy Kengashlarga hisobot berishi tugul, hatto uning majlis ishida qatnashishini tasavvur qilib bo‘lmasdi. Bu masala muhimligidan, davlatimiz rahbari 2016-yil dekabrda Prezidentlik lavozimiga saylangan kunidan 2 kun o‘tib, o‘z ma’ruzalarida *“Hozirgi kunda Oliy Majlisimiz Senati tomonidan har yili Bosh prokuraturaning hisoboti eshitiladi. Bu albatta muhim, lekin joylardagi, masalan, uzoq Olot tumanida mahalliy hokimliklar, prokuratura va ichki ishlar bo‘limlarining hisobotini kim eshitadi?”* deb alohida ta’kidlagan edi.

Mazkur ma’ruzadan kelib chiqib, bugungi kunda ushbu rahbarlarning mahalliy Kengashga hisobdorligi belgilab qo‘yildi. Ichki ishlar tizimining eng yuqori mansabdor shaxsidan tortib, mahalladagi inspektorgacha xalq vakillari oldida hisobdorligi ta’minlandi.

Yangilangan Konstitutsiya qoidalarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatidagi murakkabliklarni bartaraf etish, qonunchilikning tizimliligini ta’minlash maqsadida 2024-yil 2-fevralda Prezidentimizning “**Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmon bilan jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda mahalliy vakillik organlarining rolini oshirish maqsadida 33 ta funksiya va vakolat mahalliy Kengashlarga o‘tkazildi. Jumladan:

— ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari bilan kelishgan holda tegishli hududda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish, tugatish;

— atmosfera havosini ifloslantiruvchi manba hisoblanadigan ishlab chiqarish va iste’mol chiqindilarini saqlash poligonlarining joyini davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi mavjud bo‘lganda, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda belgilash;

— shahar yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish haqini to‘lashning yo‘l qo‘yiladigan doiradagi tariflarini belgilash;

— hovli, uy atrofi hududlarini saqlash va turar joylardan foydalanish qoidalarini tasdiqlash hamda boshqa funksiya va vakolatlar nazarda tutildi.

Shuningdek, mahalliy Kengashlarning davlat organlari hisobot (axborot)larini eshitishga doir ayrim vakolat va funksiyalari 10 taga birlashtirilgan holda tizimlashtirildi. Shu sababli, farmon bilan Kengashlarning qator vakolatlari qayta ko‘rib chiqilib, ular sohalar bo‘yicha tizimlashtirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya talablaridan kelib chiqib, mahalliy Kengashlar zimmasiga vazifa va funksiyalar faqatgina qonun hujjatlari bilan yuklatilishi, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan mahalliy Kengashlar faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi, normativ-huquqiy hujjatlarda mahalliy davlat hokimiyati organlariga berilgan mahalliy Kengashlarning qonunda belgilangan vakolatlariga xos bo‘lmagan vazifalar ijrosi bo‘yicha mahalliy davlat ijroiya hokimiyati organlari mas’ul hisoblanishi qat’iy mustahkamlandi.

Farmon bilan shuningdek, **Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi**ni ishlab chiqish vazifasi ham belgilab qo‘yildi.

Avvallari u yoki bu masala bo‘yicha idoralarning hisobot (axborot)larini faqat bir yilda bir eshitish belgilanardi. Hozir esa har oy, har chorak, har yarim yilda eshitish kabi davriy hisobot eshitishga oid vakolatlar karrasiga oshdi.

Aholi muammolari va mahalliy Kengashlar faoliyati

Mahalliy Kengashlar ishi bir qarashda sezilmayotgandek tuyulishi mumkin, lekin mamlakatimizning biror-bir hududi yo‘qki, u hatto chekka qishloqlardagi aholi bo‘lsin, mahalliy kengash ta’siri bo‘lmagan bo‘lsa.

Gap kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, turli ijtimoiy daftarlarga kirgan yurtdoshlarimiz haqida bormoqda. Adolat, ochiqlik, xalq ishtirokini

Mahalliy Kengashlar bundan yetti yil avvalgilaridan mutlaqo farq qiladi. Bugungi mahalliy Kengash deputatlari o‘z okrugidagi muammolarni aniq biladi hamda uni hal qilish uchun “Mahalla yettiligi” bilan hamkorlikda zarur choralarni ko‘rmoqda.

ta’minlash maqsadida ijtimoiy ro‘yxatlarga kiradigan har bir oila, ayol, yosh bo‘ladimi, barcha-barchasi o‘sha hududdagi mahalliy Kengash deputatlari tomonidan ochiq o‘rganilib, Kengashda muhokama qilinib, kimki haqiqatda muhtoj bo‘ladigan bo‘lsa, aynan shularga yordam ko‘rsatiladigan tizim yaratildi.

2019-yildan boshlab budjet mablag‘larini taqsimlashda fuqarolar ishtirokining tuman (shahar)lar byudjetlari qo‘shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirishni nazarda tutadigan mexanizm joriy etildi. Mamlakatimizda keng ommalashib borayotgan mazkur “Ochiq budjet” jarayonlarini ham mahalliy Kengash ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zero, aynan mahalliy Kengashlar tuman va shahar budjetlari qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foiz qismini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishga tasdiqlab bermoqda.

Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining mas’ul xodimlaridan iborat Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha ishchi komissiya tarkibi tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga tasdiqlash uchun kiritilmoqda.

“Mahalla yettiligi” va Kengash hamkorligi

Bugungi kunga kelib, zamon talabi o‘zgardi, eskicha ishlashni hozirgi hayotning o‘zi qabul qilmayapti. Odamlar orasiga, mahallaga kirib bormagan idora, mas’ul hayotdan ajralib qolyapti, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu ma’noda, “mahalla yettiligi”ga ko‘maklashish, mahallalarda qabul qilinayotgan qarorlarning haqqoniyligi va asosliligini ta’minlash maqsadida xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va “mahalla yettiligi”ning o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish maqsadida joriy yilning 4-aprel kuni Oliy Majlis Senati Kengashi tomonidan mahallalardagi muammolarni hal etishda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va “Mahalla yettiligi”ning o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish sxemasi, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va “Mahalla yettiligi”ning o‘zaro hamkorlik yo‘nalishlari tasdiqlandi.

Bu hamkorlikni bir so‘z bilan tushuntirganda, ma’nosi shundaki, aholi muammolarini hal qilishning **“mahalla — tuman mahalliy kengashi — viloyat mahalliy kengashi — Senat”** uzluksiz tizimi yaratildi.

Mahalliy ijro hokimiyatining xalq vakillariga bog‘liqligi kuchaydi. Bundan yetti yil avval mahalliy ijro hokimiyati organlari hududda biror ijtimoiy-iqtisodiy tadbirni o‘tkazmoqchi bo‘lsa, bundan har doim ham mahalliy Kengash xabardor bo‘lmagan. Bugungi kunda mahalliy ijroiya organlarining ishi xalq vakillarisiz bitmaydi. Bu adolatli haqiqat bo‘lib, biror-bir yirik tadbir o‘tkazilmoqchi bo‘lsa, xalq vakillari uni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha o‘z qarorlarini qabul qilishi lozim bo‘ladi.

Sessiyalar tig‘izligi

2017-yilgacha mahalliy Kengash sessiyasi bir yilda 4-martagina o‘tkazilgan. Hozirgi kunga kelib, xalq vakillari ishtirokisiz hududda biror-bir muhim qaror qabul qilinmaydi. Buning isbotini biz mahalliy Kengashlarning majlislari avvalgidek bir yilda 4 marta emas, balki har oyda 1-2 martadan o‘tkazilishidan yaqqol bilib olishimiz mumkin. Har oyda bo‘ladigan sessiya kun tartibida kamida o‘nta masala bo‘lishi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Qarorlarning ochiqligi: avvallari mahalliy Kengashning qarorini hech qayerda ko‘rmas edik. 2021-yil 1-iyuldan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini qabul qilish (chiqarish)ga ketadigan ortiqcha muddatlarni qisqartirish, ularni ishlab chiqishda inson omili va aralashuvini kamaytirish, shuningdek, qarorlar bilan

2020-yilgacha mahalliy Kengashlarning na bir xonasi, na biror-bir doimiy ishlaydigan kadri bo‘lmagan. Joylarda mahalliy ijro hokimiyati tashkiliy-kadrlar bo‘limining bitta mutaxassisi sessiya bo‘layotgan vaqtlarda ko‘maklashib turgan xolos.

aholini doimiy ravishda tanishtirib borish maqsadida Kengash qarorlari “E-qaror” elektron tizimi orqali amalga oshiriladigan bo‘ldi.

“E-qaror” elektron tizimini chetlab o‘tgan holda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli qarorlarini qabul qilish (chiqarish)ga yo‘l qo‘yilmasligi, bunday hujjatlar yuridik kuchga ega emasligi hamda u qabul qilingan paytdan e’tiboran hech qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmasligi belgilab qo‘yildi. Bu tom ma’noda, inqilobiy, tarixiy qaror bo‘ldi. Ochiqlik, oshkoralik, shaffoflik, aholi uchun qulaylik tamoyillariga to‘la mos kelib, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlashda sezilarli ish bo‘ldi.

Bundan tashqari, vakillik organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, mahalliy Kengash deputatlari bilan fuqarolar o‘rtasida elektron muloqot maydonini yaratish maqsadida 2022-yil 20-sentabrda Oliy Majlis Senati Kengashining “Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatiga “**Raqamli xalq deputatlari Kengashi**” kompleks axborot tizimini tatbiq etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda “**kengash.gov.uz**” platformasi ishlab chiqilib, barcha mahalliy vakillik organlari faoliyatiga joriy etildi. Bugungi kunda mahalliy Kengashlarga oid barcha axborotni ushbu platformadan olish imkoniyati yaratilgan.

Kengashlardagi shart-sharoit

2020-yilgacha mahalliy Kengashlarning na bir xonasi, na biror-bir doimiy ishlaydigan kadri bo‘lmagan. Joylarda mahalliy ijro hokimiyati tashkiliy-kadrlar bo‘limining bitta mutaxassisi sessiya bo‘layotgan vaqtlarda ko‘maklashib turgan xolos. 2020-yil 14-sentabrda qabul qilingan qonun bilan mahalliy Kengashlarda doimiy asosda faoliyat yurituvchi kotibiyatlar tashkil etildi. Hozirga kelib respublikamizdagi 221 ta mahalliy Kengashda 700 ga yaqin xodim faoliyat yuritmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 2-fevraldagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan mahalliy Kengashlar binolariga va ularni moddiy-texnik jihatdan jihozlashga doir minimal talablarni ishlab chiqish, 2024-yil 1-oktabrga qadar xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari, 2025-yil 1-dekabrga qadar xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari uchun belgilangan minimal talablarni inobatga olgan holda bino (ishchi xonalar) bilan ta’minlash va jihozlash bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi qo‘yildi.

Mahalliy Kengashlarga ko‘maklashish maqsadida Oliy Majlis Senati devonida **Hududiy vakillik organlari faoliyatini o‘rganish markazi** tashkil etildi.

Ushbu markazning vazifalari sifatida mahalliy Kengashlar faoliyatini zamonaviy talablarga muvofiq tashkil etishga huquqiy, uslubiy yordam berish, mahalliy Kengashlar faoliyatidagi muammolarni o‘rganish va ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish, mahalliy Kengashlar deputatlarining malaka oshirishini ta’minlash, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari bo‘yicha xabardor qilib borish va ular uchun muntazam ravishda o‘quvlar tashkil etish, mahalliy Kengashlar faoliyatini raqamlashtirishga ko‘maklashish kabilar belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy Kengashlar bundan yetti yil avvalgilaridan mutlaqo farq qiladi. Bugungi mahalliy Kengash deputatlari o‘z okrugidagi muammolarni aniq biladi hamda uni hal qilish uchun “Mahalla yettiligi” bilan hamkorlikda zarur choralarni ko‘rmoqda.

Albatta, yangi O‘zbekistonni barpo etish, xalqni rozi qilish, og‘irini yengil qilishda mahalliy Kengash deputatlari oldida ulkan vazifalar, o‘z yechimini kutib turgan masalalar turibdi. Buning uchun shiddat bilan o‘zgarayotgan hozirgi zamonda kuzatuvchi emas, balki fidoyi, vatanparvar, bilimli, mas’uliyatli xalq vakillari safi yanada kengayishi talab etiladi, agar har bir deputat o‘z hududidagi kamida bitta muammoni hal qilsa, mamlakat bo‘ylab kamida olti mingga yaqin muammo hal bo‘ladi.

Ijtimoiy norma misolida aytsak, bir oyda 1000 kilovatt elektr sarflaydigan xonadon 200 kilovattgacha tok ishlatadigan 5 ta oila iste’moliga teng energiyadan foydalanadi. Shunday pallada tabiiy resursni boshqalarga nisbatan ko‘proq ishlatayotgan oila pulni ham shunga yarasha to‘lashi adolatlidek ko‘rinadi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 11-iyul, 138-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Bugunning gapi



200 KILOVATT ELEKTR ENERGIYASI

“Ijtimoiy norma” ijtimoiy adolatni ta’minlaydimi?

> MAY OYIDAN TO‘LOV MIQDORI OSHIRILIB, IJTIMOIY NORMA JORIY ETILDI. UNGA KO‘RA, ELEKTR ENERGIYASIGA — OYIGA 200 KILOVATT, GAZ 100 KUB, ISITISH MAVSUMIDA — 500 KUB METRGACHA MIQDOR BELGILANDI. NARXLAR HAM SHUNGA YARASHA: BIR OYDA 200 KILOVATTGACHA — 450 SO‘M, 1000 KILOVATTGACHA — 900 SO‘MNI TASHKIL ETADI. USHBU ME’YOR ORTISHI BILAN NARX HAM OSHIB BORADI. QISQASI, HAR KIM FOYDALANGANIGA YARASHA TO‘LAYDI.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

“Bir xonadonda uch oila yashaymiz, demak, oylik limit ham har bir oilaga 200 kilovattdan — jami 600 kilovatt bo‘lishi kerak”, deydi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilaridan biri. Boshqa birov esa “Narx tushirilmasa ham, hech bo‘lmasa, belgilangan limitni 400-500 kilovattga oshirish kerak. Axir odamlarning elektr energiyasiga ehtiyoji oshib boryapti”, deb izoh qoldirgan.

Joriy yil 1-maydan boshlab elektr va gaz uchun tariflar oshirilishi hamda bunda ijtimoiy norma belgilanishi e’lon qilingandayoq odamlar orasida tushunmovchiliklar yuzaga kela boshladi. Tariflar narxining limitlarga ajratilgan holda oshib borishi tabaqalashtirishning bir ko‘rinishi, degan e’tirozlar paydo bo‘ldi. Mohiyatan esa elektr energiyasi uchun avvalgidek barcha iste’molchi bir xil tarifda emas, balki har kim foydalanganiga yarasha to‘laydigan bo‘ldi. Qator davlatlarda shunday normaga amal qilinishini ko‘pchilik yaxshi biladi.

Shunday qilib, mamlakatimizda ham ushbu tartib yo‘lga qo‘yilib, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan elektr energiyasi va tabiiy gaz bir oylik iste’molining bazaviy me’yorlari tasdiqlandi. May oyidan to‘lov miqdori oshirilib, ijtimoiy norma joriy etildi. Unga ko‘ra, elektr energiyasiga — oyiga 200 kilovatt, gaz 100 kub, isitish mavsumida — 500 kub metrgacha miqdor belgilandi. Narxlar ham shunga yarasha: bir oyda 200 kilovattgacha — 450 so‘m, 1000 kilovattgacha — 900 so‘mni tashkil etadi. Ushbu me’yor ortishi bilan narx ham oshib boradi. Qisqasi, har kim foydalanganiga yarasha to‘laydi.

Limit bitta oilaga yetadimi?

Mutaxassislarning tushuntirishicha, energiya iste’molining ijtimoiy normasi, deganda aholi tomonidan sotib olishda imtiyozli tarif qo‘llanadigan energiya hajmi tushuniladi. Energiya muayyan me’yorgacha nisbatan past (imtiyozli) narxda sotiladi. Undan yuqori hajmda iste’mol qilinganda esa bozor narxida pul to‘lanadi. Ayni paytda belgilangan 200 kilovattlik norma va unga qo‘yilgan 450 so‘m davlat subsidiyalaydigan imtiyozli narx.

Iyunning o‘rtalaridan aholi orasida ijtimoiy norma va belgilangan 200 kilovattlik limitga e’tirozlar ko‘paydi. Bu holat havo harorati oshishi sababli xonadonlarda sovitish moslamalaridan foydalanishga ehtiyoj ortishi bilan ham bog‘liq. Natijada 200 kilovattlik limit ozlik qila boshladi. Foydalanish hajmi ortishi hisobiga 200 kilovatt birdan ishlatilib, abonentlar keyingi hisob-kitobda ikki barobar yuqori qiymatda pul to‘lashga majbur bo‘lmoqda. Ayrim foydalanuvchilar bu limit nafaqat ehtiyoj ortgan vaqtlarda, balki odatiy kunlarda ham yetmasligini ta’kidlayapti.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari Alisher Qodirov shaxsiy blogida 200 kilovattlik limit aholiga ko‘mak ekanini aytib, aslida, 1 kilovatt elektr energiyasi 990 so‘m bo‘lishi kerakligiga ishora qildi. “Energetika bozor munosabatiga o‘tsa, iqtisodiyot o‘sadi, ish o‘rni ko‘payadi, aholi daromadi oshadi va ta’minot sifati o‘zgaradi. 1 kilovatt elektr narxi 990 so‘m, ishlab chiqaruvchi daromad olsa, 1100 so‘m bo‘ladi, taxminan. Daromad yuqori bo‘lsa, ta’minotda sifat yaxshi bo‘ladi. 450 so‘mlik 200 kilovatt — aholiga ko‘mak”, deya fikr qoldirgan sahifasida.

Mutasaddilar ijtimoiy norma rivojlanayotgan davlatlar uchun zarurat ekanini ta’kidlayapti. Energetika vazirligining moliyaviy iqtisodiy tahlil va narx siyosati bo‘limi boshlig‘i Orzugul Ravshanova bilan suhbatda ijtimoiy norma va limitni belgilashdagi mezonlar, umumiy tahlillar haqida so‘radik.

— Mazkur norma va limit birgina tashkilotning qarori emas, balki bir nechta mutasaddi organ, xalqaro moliya institutlari maslahatchilari, xalqaro ekspertlar takliflari, o‘rganish va xulosalari asosida belgilangan, — deydi Orzugul Ravshanova. — Bazaviy me’yor bir necha oylar davomida ASKUE tizimidan olingan ma’lumotlar va boshqa tahlillarga ko‘ra hisoblangan. Xususan, joriy yilda yurtimizda 7,6 million iste’molchi ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, prognozga ko‘ra, 2024-yilda ular 21,2 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlatadi. 200 kilovatt-soatgacha elektr iste’mol qiluvchilar qish mavsumida 48 foiz, yilning boshqa davrida 66 foiz bo‘lishi taxmin qilingan. Yil davomidagi umumiy tahlillarda esa 200 kilovattgacha iste’mol qiluvchilar 60 foizni tashkil etgan. Yoz oylarida anomal issiq yoki qishda anomal sovuq kuzatiladigan bo‘lsa, muayyan davrda iste’mol ko‘payishi mumkin. Ammo bu yil davomida kuzatilmasligi va o‘rtacha 200 kilovatt-soat elektr aholining 60 foizi hissasiga to‘g‘ri kelganini inobatga olib, shunday me’yor o‘rnatildi. E’tirozlarga kelsak, har bir xonadon foydalangan ortiqcha elektr energiyasi uchun ko‘proq to‘lashi jahon amaliyotida mavjud. Bu iste’molchilar o‘rtasida adolatni ta’minlaydi. Shu bilan birga, aholining tejamkorligini oshiradi. Tahlillarga ko‘ra, shu yil iyunda yurtimizdagi 71 foiz abonent 200 kilovatt-soatgacha elektr energiyasi ishlatgan. Bu degani oshirilgan, subsidiyalanmaydigan narx aholining asosiy qismiga ta’sir qilmagan.

MAZKUR QR-KOD ORQALI VIDEOGA O‘TING.

Iste’molga yarasha to‘lov

Bir hamkasbimning aytishicha, xonadonidagi oylik elektr iste’moli odatda 100 kilovattdan oshmaydi. Uyida ta’mirlash ishlari qilingani hisobiga iyun oyida iste’mol hajmi shu chegaradan yuqorilagan. Ular ko‘p kvartirali uylarda istiqomat qiladi va konditsionerdan foydalanmas ekan.

Maqolani yozish asnosida yana bir nechta tanishimning oxirgi oylardagi elektr energiyasi sarfiga qiziqdim. Hozir bunday ma’lumotni olish qiyin emas, telefonimizga tayyor SMS keladi.

Qolaversa, joriy yil iyunidan iste’molchilarga foydalanilgan elektr energiyasi va tabiiy gaz bo‘yicha oylik ma’lumot “bazaviy me’yor” va undan ortiq hajmlar hisobida yuborilmoqda. Xullas, ko‘pchilikning elektr iste’moli oyiga 100 kilovattga ham yetmas ekan.

To‘g‘ri, 250 kilovattdan ziyod tok ishlatadiganlar ham bor. Ammo hamma oila ham barobar emas. Qaysidir xonadonda ko‘pchilik yashaydi, ayrimlarda maishiy texnika vositalari tinimsiz ishlab turadi. Ayniqsa, hozir konditsioner yaxshigina energiya sarflaydi. Bunday sharoitda limit ham oshib boraveradi. Bir xonadon elektr energiyasidan tejamkorlik bilan foydalansa-yu, boshqasi istalgancha qurilmalarni ishlatib, zarurat bo‘lmasa ham yoqib qo‘ysa, lekin ikkala oila bir xil narxda pul to‘lasa, ijtimoiy adolat qayerda qoladi?!

Odamlarning elektrdan foydalanishga ehtiyojini bundan 10 yillar oldingisi bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Aholining iste’mol talabi yashash sharoitiga mos ravishda o‘sib boryapti. Keyingi yillarda bu talab kamida 35 foiz oshgan va raqamlar ko‘payishda davom etyapti. 2030-yilga borib, iste’molchilarning elektr energiyasiga yillik talabi hozirgi 74 milliard kilovatt-soatdan 110 milliard kilovatt-soatgacha oshishi hisob-kitob qilingan.

Boshqa jihatdan nafaqat yurtimiz, balki jahonda energetika zaxiralari tobora kamayib borayotir. U sayyoramizdagi qayta tiklanmaydigan katta boyliklardan biriga aylanib bo‘ldi. Har qanday holatda ham uni besamar, isrof bilan ishlatish to‘g‘ri emas. Shu bois, davlatlar ushbu resursning muqobil manbalarini topish va joriy etish barobarida, tejamkorlikka katta e’tibor qaratyapti.

Ijtimoiy norma misolida aytsak, bir oyda 1000 kilovatt elektr sarflaydigan xonadon 200 kilovattgacha tok ishlatadigan 5 ta oila iste’moliga teng energiyadan foydalanadi. Shunday pallada tabiiy resursni boshqalarga nisbatan ko‘proq ishlatayotgan oila pulni ham shunga yarasha to‘lashi adolatlidek ko‘rinadi.

Energetika sohasi bo‘yicha xalqaro ekspert Ravshan Xo‘janov internet nashrlaridan biriga bergan intervyusida bunday degan: “Germaniyada bir muddat yashaganman. U yerda aholi jon boshiga energiya iste’moli va to‘lovi O‘zbekistondagiga qaraganda sezilarli darajada yuqori. Masalan, o‘tgan yili Germaniyada maishiy iste’molchilar uchun elektr energiyasining o‘rtacha narxi 1 kilovatt-soat uchun o‘rtacha 0,35 yevroni, O‘zbekistonda esa 0,035 yevroni tashkil qilgan. Buning bir qancha omillari mavjud, albatta. Avvalo, ikki davlatning iqtisodiy rivojlanishi, texnologik darajasi va infratuzilmasidagi farqlar bilan bog‘liq.

Germaniyada o‘rtacha ish haqi O‘zbekistondagidan ancha yuqori. Bu esa qo‘shimcha elektr xarajatini qoplashi mumkin. Ammo ikki davlatdagi iqtisodiy vaziyatni to‘liq taqqoslash uchun ishsizlik, inflyatsiya, ijtimoiy nafaqa kabi omillarni ham hisobga olish zarur. Umuman, ko‘pgina Yevropa davlatlarida energiya narxi keyingi yillarda sezilarli oshdi. Ularda kommunal to‘lovlar ko‘pincha xarajatlarning kattagina qismini tashkil etadi”.

Yurtimizda elektr energiyasi narxi 2019-yildan shu yilning 1-mayiga qadar oshirilmagan. Mutaxassislarning aytishicha, O‘zbekiston elektr energiyasi narxi arzonligi bo‘yicha jahonda 7-o‘rinda turadi. Shu vaqtgacha ishlab chiqarish xarajatining asosiy qismi davlat subsidiyasi asosida qoplangan. Bu esa davlat byudjetiga zarar yetkazish bilan birga soha rivojiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib kelgan.

— Hozir 1 kilovatt elektr energiyasining tannarxi, ya’ni ishlab chiqarish xarajati qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan 1,002 so‘mni tashkil qiladi, — deydi Orzugul Ravshanova. — O‘rnatilgan me’yor bo‘yicha to‘lov narxi esa 201 dan 1000 kilovatt-soatgacha 900 so‘m. Hatto ushbu qiymat ham elektr energiyasini ishlab chiqarish, yetkazish, taqsimlash uchun qilinadigan xarajatni to‘liq qoplamaydi. Shunga qaramay, aholining birlamchi ehtiyoji va zarur miqdorni inobatga olgan holda 200 kilovattgacha elektr energiyasi uchun imtiyozli, subsidiyalangan qiymat taqdim etildi. Narxlar iloji boricha bozor tamoyillari asosida shakllantirilgan. Bu ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish va yetkazib berish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Kelib tushayotgan murojaatlar o‘rganilyapti, ammo hozir 200 kilovatt limitni qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha alohida rejamiz yo‘q.

Mutasaddilar to‘lov imkoniyatiga ega bo‘lmagan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami uchun bu borada alohida dasturlar borligini eslatib o‘tdi. Quyosh panellari o‘rnatib, tekin elektr energiyasi olish, hatto iste’moldan ortganini davlatga sotish kabi qulayliklar shular jumlasidan. Bu borada aholi uchun qator imtiyozlar mavjud.

Energetika vazirligi Jahon banki bilan birgalikda issiqxona gazini kamaytirish bo‘yicha yangi loyiha amalga oshirayotgani haqida ma’lumot berildi. Loyiha doirasida 5 million dollar grant mablag‘i ajratilib, kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga bepul quyosh panellari o‘rnatib berish ko‘zda tutilgan. Bu sa’y-harakatlar oshirilgan tariflarni ma’lum ma’noda yumshatish barobarida, tejamkorlik, energetika resurslaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Energetika vaziri Jo‘rabek Mirzamahmudov tariflar oshirilganidan so‘ng may oyida O‘zbekistonda 2023-yilning shu davriga nisbatan elektr iste’moli 324 million kilovatt-soatga, gaz iste’moli esa 125 million kub metrga kamayganini aytgandi. Vazirning ta’kidlashicha, abonentlar va korxonalar soni ko‘payishiga qaramay, iste’molning kamayishi energiya tejamkorligidan dalolat beradi.

Ikki karralik tarif

Limitlardagi oshirilgan tariflar tadbirkorlik subyektlari va boshqa yuridik shaxslar uchun ham belgilanishi ko‘zda tutilgan. Bu haqda shu yil 30-mayda Prezidentimiz bilan uchrashuvdan so‘ng energetika vaziri Jo‘rabek Mirzamahmudov ma’lum qilgan. Unga ko‘ra, yuridik shaxslarga limitning 10 foizidan ortig‘i miqdorida gaz yoki elektr energiyasi iste’moli uchun oshiruvchi koeffitsiyentlar qo‘llash rejalashtirilyapti. Ya’ni iste’mol limitning 10 foizidan ko‘p oshsa, biznes gaz va elektr uchun 2 karralik tarifda haq to‘laydi. Bu ishlab chiqarishga xalal bermay, iste’molni samarali tashkil etish orqali resurslarning muayyan qismini tejashni ta’minlashi bilan izohlanmoqda.

Iqtisodchi Behzod Hoshimov mazkur reja xususida ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasida fikr yozib qoldirdi. Yosh iqtisodchi tahlillarini bunday bayon etadi: “Energetika vazirligi belgilamoqchi bo‘layotgan talab qimmatga tushadigan xato bo‘lishi mumkin. Uning aytishicha, agar yuridik shaxslar limitdan ko‘proq energiya sarf qilsa, ortiqcha ishlatilgan energiya uchun ikki barobar jarima to‘lar ekan.

Xo‘sh, bu jismoniy shaxslarga qo‘llanayotgan limit bilan qanday tafovutga ega? Hammasi juda oddiy: jismoniy shaxslarga yetkazib berilayotgan energiya juda katta miqdorda subsidiyalangan hamda ishlab chiqarish xarajatidan bir necha barobar arzon narxda beriladi. Bundan ijtimoiy himoyaga muhtojlar, umuman aholiga davlat tomonidan yordam ko‘rsatish maqsad qilingan. Ana shu ijtimoiy me’yorni yuridik shaxslarga ham qo‘llash unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki birinchidan, shundoq ham yuridik shaxslar to‘laydigan narx xarajatdan yuqori. Ya’ni mantiqan olib qaralsa, yuridik shaxslar ishlatadigan har bir kilovatt energiyadan energetika kompaniyalari foyda oladi. Ammo masalaning boshqa iqtisodiy jihati ham bor. Bu ikki barobar oshadigan limit kichik firmalarga katta iqtisodiy zarar yetkazishi bilan bog‘liq. Kichikroq yoki yangi ochilgan korxonalar kengayishi juda qiyin va qimmat jarayonga aylanib qolishi mumkin”.

Ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan mazkur sa’y-harakatlarga odamlar befarq emasligi, munosabat va e’tirozlarini bildirayotgani yaxshi, albatta. Chunki jarayonning bevosita ishtirokchisi sifatida har kim fikr bildirish, takliflarini ilgari surishga haqli.

Prezident tashrifidan so‘ng



YO‘L RAVON BO‘LSA, OLIS MANZIL HAM YAQINLASHADI

Esingizda bo‘lsa, o‘tgan yil bahorda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Surxondaryoga tashrifi chog‘ida aholining Boysun — Denov yo‘nalishidagi yo‘llar sifati bo‘yicha e’tirozlarini inobatga olib, o‘zi mashina haydagandi. Shundan so‘ng mutasaddilarga bu yo‘lda keng ko‘lamli ta’mirlash ishlari olib borish bo‘yicha ko‘rsatma bergandi. Shu tariqa vohada ravon yo‘l loyihasiga start berilgandi. Xususan, ko‘p o‘tmay mazkur 111 kilometrga cho‘zilgan yo‘lni rekonstruksiya qilish ishlari boshlab yuborilgandi. Ayni paytda bu yerda ishlar qizg‘in davom ettirilmoqda.

Ta’kidlash kerakki, hudud infratuzilmasini yaxshilashda yo‘llarning ravon bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishda yurtimizda, xususan, shimol va janubni bog‘lovchi hududda joylashgan Surxondaryo viloyatida ham salmoqli ishlar bajarilyapti.

Ayni paytda viloyatda 16 ming 170 kilometr avtomobil yo‘li mavjud. Shuning 2843 kilometri, ya’ni 18 foiz qismi umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo‘li bo‘lib, Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tasarrufida. Qolgan 13 ming 327 kilometr yoki 82 foiz qismi esa mahalliy hokimliklar tasarrufida bo‘lib, qishloq, shahar hamda aholi punktlaridagi ko‘chalardir.

Tog‘li Boysundagi olis va chekka hududlarni obod qilish, qishloq hamda mahallalarda infratuzilma bilan bog‘liq eng muhim vazifalarni tizimli hal qilish, barcha ahamiyatdagi yo‘llar holatini yaxshilash orqali aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratishda tezkor va samarali chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, hududda bir oz murakkablikka ega yo‘llar masalasiga alohida e’tibor qaratilayotir.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-fevraldagi qaroriga asosan, Surxondaryo viloyati Boysun tumanida har ikki yilda bir marotaba “Boysun bahori” xalqaro folklor festivalini o‘tkazish belgilangan. Joriy yil 1-7-may kunlari tumanning Bibishirin mahallasida joylashgan, yangidan tashkil etilgan turizm maskanida o‘tkazilgan tadbirlar arafasida yo‘l infratuzilmasi yanada yaxshilandi. Hududdagi umumiy foydalanuvdagi hamda barcha ichki xo‘jalik yo‘llari ta’miri uchun 6 milliard so‘m mablag‘ ajratildi, keng ko‘lamli ishlar bajarildi.

— Bu jarayonda Surxondaryo viloyati avtomobil yo‘llari hududiy boshqarmasi hamda tarkibidagi korxonalar ishchi-xodimlari faollik ko‘rsatdi. Tumanning ichki yo‘llarida ham keng ko‘lamli ta’mirlash ishlari olib borildi, — deydi Boysun tumani yo‘llardan foydalanish korxonasi davlat muassasasi bosh muhandisi Farrux Ravshanov. — Birgina Sho‘rsoy mahallasidagi 3962 metr uzunlikdagi tosh va shag‘al ko‘chaga to‘liq asfalt-beton qoplamasi yotqizildi.

Boysun tumani yo‘llardan foydalanish korxonasi davlat muassasasi tomonidan 4R 105 “Darband q. — Boysun sh. — Elbayon q.” avtomobil yo‘lida uzunligi 800 metr, eni 8 metr bo‘lgan asfalt qoplandi. Yo‘lsozlarning tunu kun qilayotgan ta’mirlash ishlari natijasida tumanning yo‘l infratuzilmasi tubdan yaxshilanyapti. Bu esa, albatta, nafaqat mahalliy aholi, balki ushbu yo‘llarda harakatlanuvchi barcha haydovchilarning minnatdorligiga sabab bo‘lmoqda.

— Boysun nafaqat tarixi, tabiati, an’analari, balki odamlari bilan ham ma’lum va mashhur. Ana shu dong‘i ketgan joyni kelib ko‘rishga ishtiyoqmandlar ko‘p. Yaqin yillargacha bu yerga sayyohlar qadami kamdan-kam yetardi. Boysun oralab yurgan sayyohni kam uchratardik. Bunga eng katta sabab yo‘llarning abgorligi edi, — deydi mehnat faxriysi Chori Umarov. — Bugun-chi, lof bo‘lsa ham aytaman, har kuni Boysunning har bir mahallasida turistni uchratasiz. Yo‘l ravon bo‘lsa, manzillar bir qadam bo‘lib qoladi.

Davlatimiz rahbarining o‘tgan yil 16-17-noyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi yo‘l qurilishi sohasida hududdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Prezidentimiz topshirig‘iga asosan, Surxon vohasining qator tumanlaridan kesib o‘tuvchi, davlat ahamiyatidagi 4R 100 “Manguzar — Jarqo‘rg‘on — Bandixon — Oltinsoy — Denov” avtomobil yo‘lining 11-126 kilometrdagi qismlarini ta’mirlash belgilanib, salmoqli ishlar bajarildi. “Yo‘l loyiha byurosi” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlariga asosan, ushbu obyektning qiymati 94,2 milliard so‘mga baholangan.

— Mazkur obyektda ta’mirlash ishlarini bajarish uchun Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tizimidagi yo‘l korxonalari hamda yordamchi pudratchi korxonalarning 26 ta yuk tashish, 9 ta suv sepish, 11 ta zichlash mashinasi va 8 ta avtogreyder, 2 ta asfalt yotqizgich mashinasi hamda boshqa yo‘l qurilish texnikalari jalb qilindi, — deydi Qiziriq tumani yo‘llardan foydalanish korxonasi davlat muassasasi rahbari Sayfiddin Qobilov. — Umumiy foydalanishdagi davlat ahamiyatiga molik 4R 100 avtomobil yo‘lining tubdan ta’mirlanayotgani nafaqat mahalliy aholi, balki haydovchilarni ham mamnun etmoqda.

Davlatimiz rahbarining topshirig‘i asosida yana bir loyiha amalga oshirilmoqda. Muzrabot tumanidan kesib o‘tuvchi, davlat ahamiyatidagi 4R 110 “Sherobod sh. — Poshxurt q. — Oqtosh q. — Muzrabot q.” avtomobil yo‘lida keng ko‘lamli ta’mirlash ishlari bajarilyapti.

Muzrabot tumanining Sopollitepa, Xalq yo‘li, Mehrigiyoh hamda Tong yulduzi mahallalaridan kesib o‘tuvchi va hududni Sherobod tumani bilan bog‘lovchi ushbu yo‘lning 10 kilometr qismini ta’mirlash loyihasi 9 milliard 914 million so‘mga baholangan.

Yil boshidan bugunga qadar mazkur yo‘lning 65-68 kilometri oralig‘idagi 3 kilometr va 70-72 kilometri oralig‘idagi 1,8 kilometr qismidagi xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan eski qoplama maxsus texnikalar yordamida qo‘porilib, o‘rni qum-shag‘al aralashmasi bilan to‘ldirildi. Zichlanib, yo‘lning asos qismi tayyorlandi.

Hozirga qadar joriy ta’mirlash ishlarining yakuniy bosqichida ushbu yo‘lning 65-66 kilometri oralig‘idagi 0,75 kilometr hamda 70-72 kilometr oralig‘idagi 1,75 kilometr masofaga issiq asfalt qoplamasi yotqizildi.

Yo‘lsozlik — sharafli, shu bilan birga, mashaqqatli kasb. Chunki kichik bir yo‘l yoki ko‘prik bunyod etilishi tufayli qanchadan-qancha odamning mushkuli oson bo‘lib, manzili yaqinlashadi.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Dolzarb mavzu

ISHONCH INQIROZI

yoxud ajralishlar nega ko‘paymoqda?

“Oila sudyalari” tashkil etildi

Boshlanishi 1-betda

Ochig‘i, bu tuyg‘u asrlar mobaynida hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ketgani uchunmi, bir tomondan qiymatsiz ko‘ringan, lekin bebaho ekani e’tirof etilgan. Bugunga kelib bu e’tirof asl qiyofasi — bebaho boylik sifatida kuchliroq namoyon bo‘lmoqda. Hozir fikr yuritmoqchi bo‘lgan mavzuimiz ishonchning hayotimizga bevosita ta’siri — oilalarimiz, yanayam aniqrog‘i, oilaviy ajrimlar haqida.

Oilalar tinchligi nafaqat umrimiz mazmuni va hayotimiz halovati, balki yurtimiz taraqqiyoti hamda jamiyatimiz ravnaqini ta’minlaydi. Oilani asrash millatni, uning jamiki ma’rifiy qirralari va mezonlarini asrash demakdir.

Keyingi yillarda yurtimizda oilaviy nizolarning oldini olish, ajralish yoqasida turganlarni yarashtirish, ro‘zg‘ordagi yetishmovchilik va kamchiliklarni bartaraf etishga erishilmoqda. Ammo shuncha sa’y-harakatga qaramay, ajralishlar soni ko‘payib boryapti. Buning ishonchga nima aloqasi bor, dersiz?

Tadqiqotchilar va psixologlar fikricha, xiyonat, rashk, moddiy yetishmovchilik, er-xotin munosabatlaridagi chigalliklar, uchinchi shaxsning aralashuvi ortidan kelib chiqayotgan ko‘ngilsizliklar ajralishga olib kelyapti. Aslida, hech bir sabab muqaddas rishtalar bilan bog‘langan oilaning barbod bo‘lishiga, begunoh bolalarning yetim qolishiga bahona bo‘lolmaydi.

Raqamlar mulohazaga chorlaydi

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda 48 ming 733 ta, 2023-yilda 49 ming 198 ta oila ajrashgan. Joriy yilning yanvaridan mart oyigacha bo‘lgan davr orasida esa 11 ming 481 ta nikoh bekor qilingan.

Bu raqamlar har qanday kishini o‘yga soladi. Demak, bir yilda qariyb 50 mingga yaqin oila ajrashayotgan bo‘lsa, qancha o‘g‘il-qiz otasiz yoki onasiz ulg‘ayishga mahkum bo‘layotgan ekan? Ajralishlar bois, nafaqat oilalar taqdir zarbasiga duch kelayotir, ayni paytda davlat, jamiyat ham moddiy, ham ma’naviy zarar ko‘ryapti.

Xo‘sh, ajralishlarning oldini olish, oilani mustahkamlash, farzandlarimiz yetim bo‘lib qolmasligi uchun nima qilishimiz kerak? Yurtimizda bu borada qanday ishlar bajarilyapti? Ushbu savollar bilan soha mas’ullariga murojaat qildik.

Bosh qonunimizning alohida bobi oilaga bag‘ishlangan

Ozoda PARPIBOYEVA,
Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi:

— Mamlakatimizda oila va nikohga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilgan. Bosh qonunimizning alohida bobi oilaga bag‘ishlangani, Oila kodeksi qabul qilingani, qator qonun va qonunosti hujjatlarining hayotga tatbiq etilayotgani yurtimizda oila va oilaviy qadriyatlarning nechog‘liq muhim ahamiyatga ega ekanligi ifodasidir.

Oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan oilalarni rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-sentabrdagi qarori bilan “Ibratli oila” ko‘krak nishoni ta’sis etilgan. Joriy yilda yurtimizda ilk marotaba 208 ta oila ushbu ko‘krak nishoniga munosib deb topildi.

Qo‘mitamiz tomonidan ajralish yoqasiga kelib qolgan oilalar muhitini mo‘tadillashtirish, ajralishlardan jabr chekib sud zallarida otasi yoki onasini tanlay olmay biz kattalarning ishlariga hayron bo‘lib turgan farzandlarimiz taqdiriga tamg‘a bosmaslikka harakat qilyapmiz. Bu borada qator yangicha yondashuvlarni qamrab olgan dastur va loyihalar yaratildi. Bir qator vazirliklar, Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti bilan birgalikda mas’uliyatli ota-onalik mezonlarini ichiga olgan 10 ta indikator, “Farovon oila — kelajak poydevori” mavzusida tatbiq etilishi zarur bo‘lgan 10 ta loyiha ishlab chiqildi. Oilaviy ajralish, otalikni belgilash, yolg‘iz onalik va erta nikoh ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan hududlarda ijtimoiy tadqiqotlar o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalarimizni Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutiga taqdim etdik.

Albatta, oilalar bilan ishlash tizimini chuqur isloh qilish, yoshlarni oilaga tayyorlash, qadriyatimizning milliy va diniy mezonlar bilan uyg‘un bo‘lishi lozimligini targ‘ib etishda oldimizda bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalar anchagina. Ilgarilari oiladagi kelishmovchiliklar

xalqimiz ta’biri bilan aytganda, “doka ro‘molning qurishi...” darajasida yengilroq hal bo‘lardi.

Ammo bugun qancha-qancha “doka ro‘mollar qurib ketsa” ham er-xotin va qaynona o‘rtasidagi janjallarning nihoyasiga yetish, ularni yarashtirish jarayonlari og‘ir kechmoqda. Avvallari oilada o‘zaro nizo yuzaga kelsa, urishgan er-xotin yoki qaynona-kelin, ikkita kayvoni va mahalla keksalarining nasihati, maslahati bilan yarashib ketishi mumkin edi. Er-xotin ajralishiga nafaqat ikki yoshning o‘zaro janjallari, balki o‘zini ro‘zg‘orning malikasi deb bilgan ba’zi bir qaynonalar ham sababchi bo‘lmoqda. Bunday illatlarning oldini avvalroq olishimiz kerak. “Sen menga gapirma, sen bilan ishim yo‘q”, qabilida loqaydlik esa xudbinlikdir. Aytmoqchimanki, oilani asrash bugungi kunda har bir fuqaroning insoniylik burchiga aylanishi lozim, shunda amaliy natijalarga erisha olamiz.

Bag‘rikeng va kechirimli bo‘laylik

Abira HUSEYNOVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi, falsafa fanlari doktori, professor:

— Men bugun Senat a’zosi yoki professor sifatida emas, balki ona, buvi va qaynona sifatida kelinlarga, qaynonalarga, umuman farzandlarimizga nasihat va maslahat bermoqchiman. Barchamiz bu omonat dunyoda g‘animat ekanligimizni bilamiz, umrimiz o‘tkinchiligini ham. Lekin shuni anglab turib, er-xotin ajralishlariga, kelajak avlod tarbiyasiga befarq qarayapmiz nazarimda. Oilaviy ajralishlar ko‘payib boryapti. Oilaning suyanchi sanalgan otalar, farishtali onaxonlar, er yigitlar negadir beparvo. Qaynona va kelin esa murosa qila olmayapti. O‘rtada bolalar sarson.

Demak, ham oilada, ham tarbiyamizda oqsoqlik bor. Yo‘qsa ajralishlarga jimgina qarab turmasdik? Yoshlarni-ku mayli, yosh deymiz, biroq ko‘pni ko‘rgan, hayotning zarbalarida pishgan ayrim qaynonalarning molparast yoki pulparastligi oqibatida ro‘zg‘orga zarar yetmoqda. Aslida, oilani asrab qolish ko‘p jihatdan aynan qaynonalarga bog‘liq. Aziz qaynonalar, keling, bag‘rimizni sal kengroq qilaylik, siz yomon deya ko‘rishni xohlamayotgan kelinlar shiringina nevarangizning onasi, axir? Mayli, xato, kamchilik ulardan o‘tgandir, yoshlik qilgandir, sizlar kechirimli bo‘linglar. “Qaynonam, bizni tinch yashashga qo‘ymayapti”, degan kelinlar og‘zini shirin gaplar bilan yopaylik. Toki o‘zi uyalib qolsin.

Qadimda qaynonalar kelinlariga juda mehribon bo‘lgan, o‘z navbatida kelinlar ham. So‘nggi vaqtlarda yigitlar na onasiga, na xotiniga yon bosa olmay ikki o‘tning orasida qolyapti. O‘g‘lonlarim, aslo unday qilmang, shunchaki adolatli bo‘ling. Tarozining pallasini teng tuting, mayda-chuyda gaplardan baland bo‘lib, ikki tomonga birday mehr bering. Shunda oilangiz tinch, bolalaringiz bag‘ringizda, o‘zingiz xotirjam bo‘lasiz. Xato, kamchilik hammamizdan o‘tadi, biz bag‘rikeng va kechirimli bo‘lib, qahr emas, mehr bilan kelin-kuyovlarni yo‘lga solsak, olam guliston.

Men bugun nevaralari, chevaralari ko‘p buvi sifatida, oilaning buzilishiga sababchi bo‘layotganlarga qarata ko‘nglimdagi gaplarni to‘kib soldim. Bu gaplardan xulosa chiqarish vijdoningizga havola.

Gulnora PARPIYEVA,
Oliy sud Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati raisi o‘rinbosari:

— Agar fakt va raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, 2023-yil davomida fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan nikohdan ajratish bilan bog‘liq 63 ming 625 ta ish ko‘rib chiqilgan va 34 ming 635 ta nikoh bekor qilingan. 20 ming 972 tasining da’vo talablarini qanoatlantirish rad etilgan. 5434 tasi ko‘rmasdan qoldirilgan, 2584 ta da’vo bo‘yicha ishni yuritish tugatilgan.

Joriy yilning birinchi choragi mobaynida esa fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan 15 ming 585 ta nikohdan ajratish bilan bog‘liq ish ko‘rib chiqildi va 8239 ta nikoh bekor qilindi.

Afsuski, ajralishlar soni yil sayin kamayish o‘rniga ko‘payib bormoqda. Achinarlisi, oilalarning barbod bo‘lishi oqibatida murg‘ak bolalar jabr ko‘ryapti.

Amaliyotda ba’zi ajralish bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib, dilimiz xufton bo‘ladi. Koshkiydi, oilani buzib, guldek bolalarni ko‘chada sarson-sargardon qoldirishga arziydigan jiddiy sabablar bo‘lsa. “Xarakterimiz to‘g‘ri kelmadi”, degan shablon bahonada turib olganlar, turmush o‘rtog‘i chetga ishga ketgach, qaynonaning nazorati yoqmayotgan o‘zboshimcha kelinlar, ba’zida esa keliniga zug‘um qilayotgan qaynonalar tufayli necha-necha oilalar barbod bo‘lyapti. Bularning ichida xiyonat sabab parokanda bo‘layotgan oilalar ham bor.

Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrdagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, joriy yil 1-fevraldan mavjud shtat birliklari doirasida tajriba tariqasida fuqarolik ishlari bo‘yicha Samarqand shahar, Namangan tumanlararo va Mirzo Ulug‘bek tumanlararo sudlarining ikki nafardan sudyasini oilaviy nizolarni ko‘rish bo‘yicha ixtisoslashtirgan holda ushbu sudlarda “Oila sudyalari” tashkil etildi.

2025-yilga qadar yurtimizning barcha hududlarida shunday sudyalar faoliyati bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilishi belgilangan.

Davlatimiz rahbarining mazkur qarori va unda belgilab berilgan vazifalar oilalar mustahkamligi va ajralishlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishiga ishonchimiz komil.

Shaytonni eng xursand qiladigan ish — oila buzilishi

Zulayho SOATOVA,
Toshkent shahri bosh imom-xatibining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha yordamchisi:

— Bir oila buzilishi sababli ko‘plab oilalar o‘rtasida dushmanchilik paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham shaytonni eng xursand qiladigan ish — oila buzilishi. Bu haqda hadisda shunday deyiladi:

Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sallallohu alayhi vasallam: “Iblis o‘z taxtini suv ustiga quradi va o‘z lashkaridan guruhlarni yuboradi. Ularning eng ko‘p fitnachisi, unga eng yaqinidir. Birisi kelib “undoq qildim, bundoq qildim” deydi. U bo‘lsa “hech narsa qilmabsan!” deydi. Keyin boshqa biri kelib “uni qo‘yarda qo‘ymay xotini bilan orasini buzdim” deydi. U esa o‘shani o‘ziga yaqinlashtirib “Ha! Balli! Qanday ham yaxshisan!” deydi”, dedilar (Imom Muslim rivoyati).

Hozir ayrim qizlarimiz qaynota va qaynonaga xizmat qilish dinimizda yo‘q, demoqda. Ammo Fotima roziyallohu anho ham qaynonalari Fotima binti As’adga xizmat qilganlari, ularning roziligi va duosini olganlarini bilmaydilar. Oila ostonasiga qadam qo‘yayotgan qizlarimizga nubuvvat xonadonida o‘sib ulg‘aygan butun ummatga go‘zal xulqlari ila namuna bo‘lgan onalarimizning hayotlarini o‘rgatib, qaynota va qaynona uyning rahmat eshiklari manbai ekanini, ularning duolari dunyo va oxirat uchun sarmoyaligini tushuntirishimiz lozim bo‘ladi.

Shuningdek, yigitlarga ham uyning rahbari ekanligini, ona va kelin o‘rtasidagi muvozanatni adolat ila tutishi oilaviy baxt, saodat va xotirjamlikni ta’minlovchi omillardan ekanini ham bildirishimiz kerak.

“Bu masalada yumshoqroq bo‘linglar”

Farida ABDURAHIMOVA,
Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning xotin-qizlar bilan ishlash va targ‘ibot guruhlarini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i:

— Sharqda “Oila — tabiatning shoh asari” deyiladi. Uning mustahkamligi jamiyatning asosiy poydevori. Oxirgi olti-yetti yilda bu borada ko‘plab huquqiy-normativ hujjatlar, qonunlar, farmon va qarorlar, “yo‘l xarita”lari qabul qilindi. Eng muhimi, ularning ijrosi bo‘yicha katta mablag‘ ham ajratilmoqda. Ijrochilari, muddatlari ham aniq-tiniq belgilangan.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Bosh prokuratura, Oliy sud, Adliya, Ichki ishlar vazirliklari, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan hamkorlikda O‘zbekistonning har bir hududida ota-onalarning vazifalari, oilaning ma’naviy-axloqiy muhiti, sog‘lom turmush tarzini ta’minlash mezonlari asosida targ‘ibot-tashviqot, tushuntirish ishlari olib borilyapti. Er-xotin munosabatidagi darzlarni butlash, qaynonalik maqomi, bandlik masalalarini ichiga olgan dasturlar doirasida qiladigan ishlarimiz hali ko‘p. Davlatimiz rahbari ham uchrashuvlarda qaynona va kelin munosabatlariga alohida urg‘u berib, “bu masalada yumshoqroq bo‘linglar, kelinni ham o‘z qizingizdek ko‘rishni o‘rganinglar”, deb ta’kidladi. Ko‘pni ko‘rgan yoshi ulug‘ onaxonlar bilan uchrashib, oilalar buzilishi bizning millatimiz uchun azal-azaldan uyat sanalgani, oilalarni mustahkamlashga asosan, qaynonalar mas’ulligi haqida alohida uqtiradi.

Qur’oni Karimning Niso surasida ham ayolni, onani, qiz farzandlarni hamisha e’zozlash, ardoqlash ta’kidlangan. Ota-onasi bag‘rida voyaga yetgan qizlarni turmushga berish qadriyatlarimizning eng go‘zali sanaladi. Shuning uchun ham qiz uzatayotganlar to‘ydan so‘ng qo‘llarini duoga ochib, “Borgan joyingda toshday qot, bolam”, deya tilak bildiradi. Ammo ular aytganichalik tosh bo‘lish oson ish emas hozirgi davrda.

Aslida, qars ikki qo‘ldan chiqadi. Bu borada nafaqat qaynona, kelin-kuyov, shu bilan birga, yon-atrofdagilar — mahalla, qo‘ni-qo‘shnida ham gap ko‘p. Agar oilaning barcha a’zolari ahil bo‘lsa, bir-birini tushunib yashasa ajralish ostonaga yaqin ham kelolmaydi.

Ta’kidlash joizki, xiyonat, uchinchi shaxsning aralashuvi, rashk, moddiy muammolar, zararli odatlar, yoshlarning oilaga tayyor emasligi, oilaviy qadriyatlarning to‘g‘ri shakllanmagani, ijtimoiy tarmoqlardan noto‘g‘ri foydalanish, turli yot g‘oyalarga berilish, o‘zbekona kiyinish madaniyatiga rioya etmaslik kabi salbiy holatlar bugun ko‘plab yosh oilalarni boshi berk ko‘chalarga boshlayapti.

Qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning oldini olish bo‘yicha individual ishlash dasturi doirasida ish olib boryapmiz. Natijada jar yoqasiga kelib qolgan qanchadan-qancha oilalarni yarashtirishga erishib, ajralishlarning oldi olinayotir. Eng muhimi, hali voyaga yetmagan yuzlab, minglab bolalar ota-onasi bag‘riga qaytyapti. Ammo hali qilinadigan ishlarimiz ko‘p.

Bugun aholi o‘rtasida erta nikoh, erta tug‘uruq, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar natijasida nogiron bolalar tug‘ilish ko‘rsatkichlarining oshib borishi har birimizni ogohlikka, hamkorlikka chorlashi lozim. Bo‘lajak kelin-kuyovlarning tibbiy ko‘rigi masalasini qayta ko‘rib chiqish, keng jamoatchilik, oilalar bilan ishlashni mahallabay, oilabay tashkil etish bilangina bu borada amaliy natijalarga erishimiz mumkin.

Oilaga e’tibor o‘zligimizga e’tibordir

Bolaligimizda “ajralish”, degan so‘zning ma’nosini tushunish tugul uning nima ekanini ham anglab yetmasdik. Chunki ajralishlar yo‘q hisobi edi. Endi-chi, hali maktabga chiqmagan bolakaylar ham bu so‘zning zalvarli yukidan aziyat chekyapti. Bir vaqtlar urush davrining qahatchiliklarida o‘zbek oilalari to‘kin yashashga sharoiti bo‘lmasa-da, nafaqat o‘zining, balki o‘zga millat farzandlarini ham bag‘riga olib, o‘z bolasiday voyaga yetkazgan. Bugun-chi, yurtimiz tinch, dasturxonimiz to‘kin, uyimiz, mashinamiz bor, kiyimlarimiz po‘rim-u, ammo negadir ko‘nglimiz tor. Ba’zilarimiz sal noshukr, sirkamiz suv ko‘tarmaydigan darajada xudbin bo‘lib borayotgandaymiz. O‘zimizni, tinchimizni, halovatimizni o‘ylaydigan bo‘lib qolgandaymiz.

Bugun zamon o‘zgardi, deysizmi? To‘g‘ri, zamon o‘zgardi, zamon bilan birga o‘zimiz ham. Lekin imonimiz, vijdonimiz o‘zimizda-ku? Nega yetti mahallaga eshittirib karnay-surnay navolari ostida ostonasi tillodan uy seniki deya, kelin tushirgan qaynonalar ikki, uch yilga bormay kelini va nevaralarini uyidan haydayapti. O‘zini, onasining so‘zini ikki qilmaydiganday ko‘rsatayotgan yigitlarning ko‘pchiligi aslida, onasining “Boshqatdan yoshginasiga uylantiraman” degan gapi xumorida yuribdi. “Sizsiz yashay olmayman” deya turmushga chiqqan ba’zi kelinchaklar na qaynona, na er hurmatini joyiga qo‘ymayapti.

Keling, shu o‘rinda tafakkurimizni teranroq qilib fikr yuritaylik-chi, ajralishlarni ko‘paytirib, bolalarni yetim qilib qayerga qarab ketyapmiz? Qiynalganda suyanadigan, yiqilganda tirgak bo‘ladigan, shodligimizga oshno, g‘amimizga sherik bo‘lgan oilamiz borligiga shukr etaylik va ko‘z qorachig‘idek asrashga harakat qilaylik.

Xulosani Prezidentimizning “Oilaga e’tibor o‘zligimizga e’tibordir. Oilani saqlab qolmasak, biz o‘zligimizni yo‘qotamiz”, degan so‘zlari bilan yakunlashni ixtiyor etdik. Zero, oila jon ozug‘imiz va jon tomirimizdir!

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ko‘li Qubbon yoki Ko‘kko‘l — Shohimardonning sharqiy tarafida, qishloq markazidan 5 chaqirim uzoqlikda, qo‘shni Qirg‘iziston hududida joylashgan. 3000 metr balandlikdagi tabiat mo‘jizasi sayohatchi va ziyoratchilarni o‘ziga maftun etib keladi. Bu yerda osma dor yo‘li ishga tushirildi. Sayyohlar bu yo‘l orqali yuqoriga ko‘tarilib, Ko‘li Qubbon sohilida cho‘milishi, motorli qayiqlarda sayr qilishi mumkin.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Ichki turizm

Bir borganda UCH MANFAAT KO‘ZLANADIGAN MASKAN

Purviqor tog‘lar bag‘rida joylashgan Shohimardon qishlog‘i o‘ziga xos ohanrabosi, tarovati bilan ajralib turadi. So‘lim tabiatli, zilol suvli, musaffo havoli, to‘rt tarafi tog‘lardan iborat, maftunkor bu qishloqning Oqsuv va Ko‘ksuv soylari, archazorlari dilingizga huzur bag‘ishlaydi. Taningiz rohatlanadi, ruhingiz yengil tortadi, musaffo havodan to‘yib-to‘yib nafas olasiz. Shu bois, ko‘hna qishloq asrlar davomida sayyohlik maskani sifatida odamlarni o‘ziga chorlab keladi.

Farg‘ona tumanidagi “Shohimardon”, “Yordon” mahalla fuqarolar yig‘inlarida sayyohlik imkoniyatini oshirish, yangi turizm yo‘nalishlari ochish, sayyoh va ziyoratchilar uchun qulay infratuzilma tarmoqlari qurish borasida tizimli ishlar bajarilmoqda. Farg‘ona shahridan 60 kilometr janubda — Oloy tog‘ tizmalariga tutashgan bu maskanda 11 mingdan ortiq kishi istiqomat qiladi.

Bu yerda ko‘plab ziyoratgohlar bor. Ularning eng mashhuri — Chakkitomar bulog‘i. Tog‘ bag‘ridan tomib turgan suvni ichgan inson ham ruhiy, ham jismoniy yengillik sezadi. Qon tomirlariga darmon inganday bo‘ladi. Buloq yoniga yaxshi niyatli kishilar kelib, shifobaxsh suvdan bahramand bo‘lishni odat qilgan.

Ko‘li Qubbon yoki Ko‘kko‘l — Shohimardonning sharqiy tarafida, qishloq markazidan 5 chaqirim uzoqlikda, qo‘shni Qirg‘iziston hududida joylashgan. 3000 metr balandlikdagi tabiat mo‘jizasi sayohatchi va ziyoratchilarni o‘ziga maftun etib keladi. Bu yerda osma dor yo‘li ishga tushirildi. Sayyohlar bu yo‘l orqali yuqoriga ko‘tarilib, Ko‘li Qubbon sohilida cho‘milishi, motorli qayiqlarda sayr qilishi mumkin.

— Xalqlarimiz orzusi ushaldi. Ikki mamlakat rahbarlarining amaliy sa’y-harakati bilan o‘zbek va qirg‘iz xalqlari Shohimardonga, Qadamjoy, Yordon, Ko‘li Qubbonga kelib dam olishi, ziyorat qilishi uchun munosib shart-sharoit yaratildi. Chegaradan ID-karta orqali o‘tish tartibi amaliyotga kiritilgach, fuqarolar emin-erkin sayohatga borib kelmoqda. Bu ortiqcha tirbandlik va ovoragarchiliklarning oldini olmoqda, — deydi “Shohimardon” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Ikromjon Abduxoliqov. — Mahallamizda 60 dan ortiq mehmon uyi va 30 dan ortiq dala hovlida sayyohlar uchun munosib shart-sharoit yaratildi.

Mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi memorial muzeyda ta’mirlash ishlari bajarilmoqda. Bu yerda ko‘hna qishloqning o‘ziga xosligi hamda tarixini aks ettiruvchi konsepsiya ishlab chiqildi. “Hazrati Ali” ziyoratgohi hamda unga tutash hudud obodonlashtirilyapti. Shuningdek, ko‘chalarni kengaytirish, yoritqichlar o‘rnatish, sayyohlar va ziyoratchilar uchun zaruriy infratuzilmani takomillashtirish bo‘yicha ishlar jadal davom ettirilmoqda. Qishloq markazidagi istirohat bog‘ini zamonaviy sayyohlik maskaniga aylantirish, bog‘ hududida amfiteatr qurish bo‘yicha istiqbolli loyihalar ishlab chiqilgan.

Fransiyaning “Montagne et Neige Développement” (MND) kompaniyasi Shohimardonga keluvchi sayyohlar uchun qulay shart-sharoit yaratishni ko‘zda tutuvchi, arqon yo‘li va osma ko‘priklarni o‘z ichiga olgan ommaviy turizm maskani barpo etish loyihasini taklif qilmoqda. Kompaniya hududiy direktori Orxan Shirin hamda mahalliy hamkorlari bu yerdagi o‘rganishlar natijasida ishlab chiqilgan istiqbolli konsepsiyasini taqdim etdi. Loyiha 10 tadan kabinaga ega ikkita arqon yo‘li, 1 ta qiya ko‘targich, 1 ta osmako‘prik, attraksionlar

va boshqa ko‘plab qo‘shimcha sayyohlik infratuzilma obyektlarini o‘z ichiga oladi. Tabiat bilan uyg‘unlik bosh g‘oya bo‘lgan loyihada oilaviy turizm imkoniyatlarini taqdim etishga ham alohida e’tibor qaratilgan.

— Ko‘hna qishloqdagi qutlug‘ qadamjolar, so‘lim tabiati haqida juda ko‘p eshitgan bo‘lsam-da, imkon topib kelolmagandim, — deydi toshkentlik Shokirjon Toshqulov. — Chegaradan o‘tish tizimi soddalashtirilibdi. Shaxsiy mashinamizda emin-erkin harakatlanib yuribmiz. Ikki kundan buyon kitoblar, gazeta va jurnallarda o‘qigan, do‘stlarimdan eshitgan qutlug‘ qadamjolarda bo‘ldik, ajib tabiat qo‘ynida maroqli hordiq chiqardik. Hammasi go‘zal, betakror. Bu yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-totuvlik, hamjihatlik samarasi.

Nafas yo‘li va allergik kasalliklarni davolashga ixtisoslashgan 130 o‘rinli viloyat pulmonologiya shifoxonasi ham aynan shu qishloqda joylashgan.

— Bir yilda 4000 ga yaqin bemor davolanib ketmoqda, — deydi bosh shifokor Rustamjon Karimov. — Endi nafaqat mahalliy aholi, balki qo‘shni mamlakatlardan kelib davolanish istagidagilar safi kengayib bormoqda. Nafas yo‘li va allergik kasalliklar tibbiyotning zamonaviy usullari bilan birga, tabiiy yo‘l va fizioterapiya yordamida davolanadi. Surunkali allergiya xastaligi bilan og‘rigan bemorlar bu yerda davolanib ketganidan so‘ng bir yil kasallik qaytalanmaydi.

Shifokorlar bemorlarga muolaja olish bilan birga saharda Yordon qishlog‘idagi archazorlarga borib, musaffo havodan to‘yib-to‘yib nafas olishni tavsiya qiladi. Chunki archa barglaridan inson salomatligiga ijobiy ta’sir qiluvchi va immunitetni oshiruvchi efir moyi hamda shifobaxsh moddalar taralib turadi.

— Shohimardon dengiz sathidan 1500 metr balandlikda joylashgan, — deydi Farg‘ona viloyati hokimligi huzuridagi “Shohimardon” turizmni rivojlantirish direksiyasi mutaxassisi Manzuraxon Mo‘minova. — Pomir-Oloy tog‘ tizmalari bag‘rida joylashgan bu go‘shada, asosan, ziyorat va sayohat turizmi jadal rivojlanmoqda. Sayyohlarni bu yerga olib kelganimizda birinchi marotaba kelganlar “Nahotki, shunday maftunkor va mo‘jizakor joylar bo‘lsa”, dedi hayratini yashirolmay. Chindan ham Shohimardon va Yordon mo‘jizaning o‘zginasi. Tog‘ giyohlaridan oziqlanadigan echkining suti va qatig‘i, tog‘ asali, shifobaxsh meva hamda rezavorlardan tatib ko‘rsangiz, bunga o‘zingiz amin bo‘lasiz. Zilol suv tarkibida ham inson salomatligi uchun foydali makro va mikro elementlar bor.

Xalqimizda “Ming bor eshitgandan bir bor ko‘rgan afzal”, degan ibora bor. Shohimardon tarovatini ko‘rmoqchi bo‘lsangiz, yaxshisi, fursat topib, sayohatga borib keling.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ibrat

AZLARTEPA qanday qilib Uzumzor bo‘lgan edi?

Olisga ko‘chib ketgan qarindoshlarini yo‘qlash uchun kelgan mehmon bu kecha tunab qoladigan bo‘ldi. Gurung avj oldi. Eski xotiralar jonlandi. Davradagilarning aksariyati dehqon bo‘lgani bois, suhbat ham, asosan, shu xususida bo‘ldi. Kim nima ekayotgani, qanday hosil olish, qanday ishlov berish... Bu so‘zlar mehmonga ma’qul bo‘lmasa-da, noiloj eshitib turdi. Ammo ko‘nglida “hammayoq taqir cho‘l bo‘lsa, bu yerning nimasidan hosil olish mumkin, quruq gap bilan o‘zlarini ovutish ekan-da”, deb qo‘ydi. Hamma tarqalgach, o‘zi uchun ajratilgan so‘ridagi joyga yotgan mehmon uyquga ketdi. Bir mahal sal naridan gup-gup etib, yerga urilayotgan ketmon ovozi eshitildi. Seskanib uyg‘ongan mehmon sekin quloq solib, o‘rnidan turgancha ovoz kelayotgan tomon yurdi.

Tun yarmidan og‘ib, soat millari to‘rtga yaqinlashmoqda. Hamal kirganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Dalada yurgan kishi egniga to‘n yopinmasa, sovuq qotishi aniq. Mayin esayotgan shabada kishiga yengillik baxsh etadi. Dehqonning qo‘lidagi kattagina ketmon har ko‘tarilganda oy nurida yaltirab, ko‘zni qamashtiradi. Yaqinroq borib qaramasa, zavq bilan ishlayotgan odamning kimligini tanish mushkul. Egnida olacha to‘n, boshida do‘ppi. Peshonasini ro‘molcha bilan tang‘ib olgan.

Dehqonning tongdanoq mehr bilan ishlashini bir oz kuzatib turgan mehmonning baribir bu kengliklarda biror nihol unib chiqishiga ko‘zi yetmadi. Aslida, bu hududga odamlar ko‘chib kelganiga hali ko‘p bo‘lgani yo‘q. Qamashi tumaniga qarashli oldingi Azlartepa qishlog‘i hududi bo‘lgan bu joy tepaliklardan iborat, yaqin atrofda faqat xo‘jalik hisobidagi paxta maydoni bor edi. Bu atrofga suv chiqarish u paytlar ancha mushkul bo‘lgan. Vaholanki, dalaga yaqin joyda — 12 metr pastlikda kanal oqardi.

Manzilgohi yaqinida kattagina suv ombori bunyod etilgani tufayli bu joylarga ko‘chirilgan aholining asosiy qismi bog‘bonlar sulolasidan edi. Qayda bo‘lsa qo‘lida ketmon, bog‘ yaratishni qoyillatadigan odamlar bu yerga ko‘chib kelgan yilning oxirlariga borib, mamlakat mustaqilligi e’lon qilindi. Qarovsiz, faqat tepaliklardan iborat joyga kelib qolganidan kayfiyati tushgan odamlar istiqlol shamolidan kuch olib, ishga kirishdi. Yangi yerlar o‘zlashtirishadi. Mehnatkashlik qonida bo‘lgani bois, bir daqiqa vaqtini behuda sarflamay, harakat qiladi. Ajablanarlisi, hech kimning xayoliga kelmagan loyiha asosida shu yerda tok ko‘chati ekib, bog‘ yaratishga bel bog‘lashadi. Mehnatkash odamlar bor kuchini dalaga sarflaydi. Ular qatorida Qo‘chqor Ko‘chimov ham bor edi.

Asli mutaxassisligi adabiyot muallimi bo‘lsa-da, Qo‘chqor akaning bog‘ barpo etishga qiziqishi kuchli edi. Shu bois, boshqalar qatori u ham shu hududda uzumzor yaratishga kirishdi. Dastlab ishni yerga ishlov berishdan boshladi. Bobosidan qolgan katta ketmonni qo‘liga olib, odatiga ko‘ra ikki ketmondan urib, yerni ag‘darib chiqdi. Keyin har uch qadam oraliqda bir metr aylana va chuqurlikda xandaq kovladi. O‘zi qalamchasidan parvarishlab, ko‘klatgan tok nihollarini yerga qaday boshladi. Lekin bu kengliklarda nihol o‘stirishning o‘zi bo‘lmasdi. Kuchli shamol ko‘chatlarning tagini quritib ketadi. Shu bois, muallim kunduzi maktabga ishga borar, kechalari uxlamay, pastlikdan o‘tgan kanaldan chelaklab suv tashib, sug‘orib chiqardi. Ko‘chatlar tagiga ishlov berishni ham doim kechki payt bajarardi. Bundan tashqari, ko‘chatlar orasiga tarvuz urug‘i qadab, undan ham mo‘l hosil olish payida bo‘lardi.

Hududda tajribali bog‘bonlar barchasi bu xayrli ishni birdek boshlagani bois, muntazam o‘zaro maslahatlashardi. Mabodo qishloqdagi to‘y-ma’rakalarda yig‘ilishib qolishsa ham suhbat, asosan, tok parvarishi haqida boshlanib, shu bilan tugardi.

Oradan ikki-uch yil o‘tib, boshqalar qatori Qo‘chqor akaning uzumzori ham ko‘zga tashlana boshladi. Avvaliga qarovsiz tepalikka ekilgan besh yuz tup ko‘chat yerga yashillikni baxsh etib, tepalikka o‘zgacha chiroy berdi. Mehnati samarasini ko‘rgan dehqonning ham dili yayradi. Ilk bora hosilga kirgan uzumdan totib ko‘rib, barcha charchog‘i shu onda unutildi. Bundan yanada faxrlanib, ko‘proq mehnat qilishga kirishdi. Farzandlarini yoniga olib, bog‘ni kengaytirishda davom etdi.

Besh-olti yil o‘tib, bu hududda yetilgan uzumning dong‘i yon-atrofga tarqaldi. Xaridorlar o‘zi izlab keladigan bo‘ldi. Ayniqsa, Oqrabotning husayni uzumi bozorbopligi bois, dehqonlar ishining yanada barakali bo‘lishiga xizmat qila boshladi. Endi qishloqning oldingi Azlartepa nomi ham o‘zgartirilib, Uzumzor, deb ataladigan bo‘ldi.

O‘n farzandni birovdan kam qilmay, halol mehnat bilan voyaga yetkazishga intilgan adabiyot muallimining o‘qituvchilik bilan cheklanib qolmay, bog‘ barpo etgani mushkulini oson qildi. Ro‘zg‘or tashvishlarini yengib o‘tishga kuch berdi. Bundan tashqari, muallim o‘z tajribasiga tayanib, uzumning yangi navini yaratdi. Ikki turdagi uzumni bir-biriga changlatib, sinov tariqasida yangi nav ustida izlanish olib bordi. Natijada boshqalaridan farqli, po‘sti bir oz qalin, sovuqqa chidamli, ta’mi shirin hosil olindi. Unga “Oqrabot go‘zali” deb nom berildi. Yangilik bog‘bonlar orasida tez tarqaldi.

Ayni paytda Qo‘chqor otaning yoshi saksonga yaqinlashmoqda. Shunday bo‘lsa-da, hamon bog‘idan chiqmaydi. Qo‘lida qaychi, tok oralab ishlov berishdan to‘xtagani yo‘q. Bir gektardan ortiq yerga o‘z qo‘li bilan ko‘klatgan bir yarim ming tupga yaqin “Husayni”, “Chillaki”, “Olomon to‘ydi”, “Qora go‘zal”, “Oqrabot go‘zali” va boshqa navli uzum ko‘chati ekilgan bog‘dan uzoqlashishni xohlamaydi. Go‘yo uzumzor bilan dardlashib, o‘ziga kuch oladi.

— Mehnatidan qochmasangiz, tok ham xazina, — deydi Qo‘chqor ota Ko‘chimov. — Faqat o‘ziga xos mehnati bor. Doim bir kishi egatdan chiqmay, ishlov berib yurishi kerak. Erta bahordan kech kuzga qadar nazoratsiz qoldirib bo‘lmaydi. O‘z muddatida agrotexnik ishlov berish, vaqtida kesib, chopiq qilish, bundan tashqari, doim xomtok qilib borish zarur. Hovlingizda yigirma tup tok bo‘lsa, qancha baraka bo‘ladi. Ko‘p bo‘lsa, yanayam yaxshi. Lekin hammada ham imkoniyat yo‘q. Gohida yosh oilalarning hovlisini ko‘zdan kechirib, achinib ketaman. Kattagina tomorqasi bo‘sh yotadi. Er-xotin esa yetishmovchilik haqida tortishishdan nariga o‘tmaydi. Aslida, quruq gap bilan kamchilikni but qilib bo‘larmidi? Oxiri hech bo‘lavermagach, oila boshlig‘i chet elga ishga jo‘nashga shaylanadi. Undan ko‘ra, aqlni ishlatib, oldidagi imkoniyatdan foydalanish xayoliga ham kelmaydi. Ayrim paytlar mahalla faollari ba’zi kelishmovchilik paydo bo‘lgan yosh oilalarga maslahat berish uchun chaqirib qoladi. Shunday paytda, avvalo, oilaning hovlisini ko‘zdan kechiraman. Birorta niholga ko‘zim tushmasa, yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashga harakat qilaman. O‘zim bosh bo‘lib bog‘dorchilikni o‘rgataman. Mehnat qilsa, ertaga turmushi farovon bo‘lishini tushuntiraman. Maslahatimga quloq tutganlar kelib, rahmat aytib ketgan.

Aytishlaricha, Azlartepa qishlog‘i nomining Uzumzorga o‘zgarishiga aynan shu yerdagi keksa dehqonlar sababchi bo‘lgan. Jumladan, Qo‘chqor ota bilan yelkama-yelka mehnat qilgan Nomoz, Qurbonmurod, Esonmurod, Elmurod bobolarning astoydil xizmati tufayli qishloq deyarli uzumzorga aylangan.

— Tokzordan nafaqat uzum olish, balki yana uch-to‘rt xil ekin ekib, foyda ko‘rish mumkin. Misol uchun, tok oralig‘iga tarvuz yoki qovun, arpa yoki bug‘doy eksa bo‘ladi. Bundan tashqari, xomtok qilganda barglari doim olib tashlanadi. Uni ham behuda tashlamay, chorvani boqishda ishlatsa bo‘ladi, — deydi tajribali bog‘bon Elmurod Xo‘jayev. — Hozir qishlog‘imizda tok ekilmagan biror xonadon yo‘q. Qaysi hovliga kirmang, har birida uzum yetishtiriladi. Mavsum boshlangan payti kelsangiz, uzum bozori ayni avjiga chiqqaniga guvoh bo‘lasiz. Qarshi shahri va atrofdagi ayrim tumanlar bozorini uzum bilan ta’minlashda qishlog‘imiz yetakchi. Bir paytlar shu yerlar tokzor bo‘ladi, deya hech kimning xayoliga kelmagan. Inson qo‘ligul, deb bejiz aytishmagan. Yangi ko‘chib kelgan paytlarimizda oddiy quruq yer edi. Albatta, shu holatga keltirishning o‘zi bo‘lmadi. Kecha-kunduz tinim bilmadik. Qo‘chqor Ko‘chimovga o‘xshagan tajribali dehqonlar bilan maslakdosh bo‘lib, shu natijaga erishdik. Bugun rohatini ko‘ryapmiz.

Har mavsumda kamida besh yuz million so‘mdan ortiq daromad ko‘rayotgan Qo‘chqor ota uzumzor ortidan o‘n farzandini o‘qitdi, uyli-joyli qildi. Shu bilan birga, o‘n besh nafar xotin-qizning doimiy bandligini ta’minlab, maosh berib kelmoqda. Shuningdek, kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan oilalarga ko‘mak berishda faol.

Qo‘chqor ota har tong tokzor oralashni yaxshi ko‘radi. Shu paytda uning bir qo‘lida qog‘oz-qalam, ikkinchisida tokqaychi bo‘ladi. Endi shira kirayotgan, oftob nurida ko‘zni qamashtiradigan uzumlarga qarab ilhom oladi-da, shu joyning o‘zida she’r yozishni boshlab qoladi. Keyin qoralamalarini oqqa ko‘chirib, kitob holiga keltirishni ham unutmaydi. Axir bog‘ ichida yozilgan she’rni kitobga muhrlamasa bo‘lmaydi-da. Hozir nashrdan chiqqan kitoblari soni anchaga borib qoldi.

— O‘zim ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi bo‘lganim bois, she’riyatga qiziqaman, — deydi Qo‘chqor ota Ko‘chimov. — Shoir Abdulla Oripov ijodiga mehrim boshqacha. O‘zim ham yozganlarimni to‘plab boraman. Kitob o‘qishni yoqtiraman. Gohida bog‘ orasida o‘tirib olib, mutolaa qilishning zavqi bo‘lakcha. Nabiralarimga ham doim kitob o‘qish kerakligini targ‘ib qilaman. O‘qishga rag‘batlantirib boraman, albatta. Ijod mahsulim hisobga olinib, yaqinda Yozuvchilar uyushmasi a’zoligiga qabul qilindim. Bu menga yanada kuch bag‘ishladi. Ayni paytda yosh bog‘bonlar uchun uslubiy qo‘llanma tayyorladim. U ham tez orada o‘quvchilar qo‘liga yetib boradi.

Qo‘chqor Ko‘chimovning umr daftariga nazar tashlar ekanmiz, o‘ziga xos uzumchilar maktabini yaratganiga, halol mehnat ortidan o‘n farzandni voyaga yetkazib, namunali oila boshlig‘i sifatida turmush kechirib kelayotganiga guvoh bo‘lamiz. Ibratli insonlar ortidan ergashgan Uzumzor qishlog‘i aholisi ham kam bo‘layotgani yo‘q. Bog‘dorchilik bilan shug‘ullanib, o‘zini o‘zi band etgan fuqarolar yaxshigina daromad topmoqda. Eng muhimi, halol mehnat ortidan oilalar yanada farovonlashmoqda. Aytgancha, bir paytlar biror nihol unishiga shubha qilganlar bugun og‘zidan bol tomib, bu yerning uzumini maqtamoqda.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2371.
42368 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 21:35 Topshirildi — 00:45

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05